

vechi tor yo'lak birikkan. Yo'lakning chap va o'ng taraflarida ikkitadan kichkina xonacha bo'lib, birida tik turib uslash, boshqasida esa tabiy ehtiyojlarni qondirish mumkin. Yonida yuqori va pastga olib boruvchi hamda olisda ko'zdan g'oyib bo'luchchi aylanma zina. Yo'lakda ko'rigan narsalarни ikkiga ajratib ko'rsatuvchi ko'zgu. Ko'zgular odamlarga kutubxonasi cheksiz emasligini eslatib turadi (Agar u haqiqatan ham cheksiz bo'lsa, mavhuk ikkilantirishga ne hojat?): men esam teki sirtlarni cheksizlikni ifodalaydi va umid uyg'otadi deb o'ylashni ma'qil ko'raman. Yorug'likni chiroq deb nomlanuvchi yumaloq shisha mevalar tarqatadi. Ular har bir olti qirralikda ikkitadan bo'lib qaramaqarshi devorlarda bittadan joylashgan. Ulardan taralayotgan xira nur hech qachon o'chmaydi.

Kutubxonadagi barcha odamlar kabi men ham yoshligimda sayohat qilganman. Bu kitob qidirib, ehtimol, kataloglar katalogini qidirib qilingan ziyorat edi; endiilikda ko'zlarim yozayotganlarimni bazo'r ajratayotganda men o'zim dunyoga kelgan olti qirralikdan bir necha mil uzoqlikda hayotimga nuqta qo'yilishiga tayyorman. Men vafot etganimda kimmingdir marhamatlari qo'llari meni panjaraning narigi tomoniga oshirib tashiydi, hadsiz fazo qabrimga aylanadi; mening tanami pastiga ohista quib, sharmolda yo'qolib boradi va u tubsiz quashga sabab bo'ladi. Men kutubxona poyonsiz deb tasdiqlayman. Idealistlar olti qirralik binolar mutlaq makonning zaruriy shakli ekanligiga yoki har holda uni shunday deb his qilishimizga dalli-isbotlar keltiradilar. Ular olti qirralik yoki besh qirralik aqila sig'maydi deb hisoblaydilar. Mutasavvif (mistik)lar jazava (ekstaz) holatida ularga ulkan yumaloq kitobi mayjud sharsimon xona namoyon bo'lishi, uning cheksiz koreshogi (kitobning tikilgan chekkasi) devorlar bo'ylab o'tishini ta'kidlab uqtiradilar; ularning guvohliklari shubhali, gaplari noaniq. Bu sharsimon kitob - Tangridir.

Hozircha qabul qilangan klassik ta'rif bilan cheklanish mumkindir: kutubxona - bu shar bo'lib, uning markazi olti qirraliklarning birida bo'lib, sirtiga sira yetib bo'imaydi. Olti qirralikning har bir devorida beshtadan tokcha mayjud, har bir tokechada hajmi bir xil bo'lgan o'ttiz ikkita kitob, har bir kitobda to'rt yuz

sahifa, har bir sahifada qirq misra, har bir misrada saksontaga yaqin qora rangli harflar. Harflar kitoblarning koreshogida ham bor, biroq ular sahfalar nima deyishini na ta'riflay va na bashorat qila olishadi. Bilaman, bu nomutanosiblik qachonlardir sirli tuyulgan.

Xulosa chiqarishdan oldin (bu ehtimol, fejeali oqibatlarga qaramay, ushbu voqeadi eng muhimidir), men ba'zi bir aksiomalarni yodga solib qo'ymoqchi edim.

Birinchidan: Kufubxonasi ab setapno mavjud! Ushbu haqiqatni, ya'ninuning oxir-oqibati - dunyoning istiqboldagi bo'qiliyi bo'lib, hech bir aql-farosatlari odam buni rad qila olmaydi. Nomukammal kutubxonachi bo'lgan inson tasodif yoxud yovuz daholarning xatti-harakatlari tufayli paydo bo'lishi mumkin, biroq nafis rafli, sirli jildli, sayohatchi uchun adog'i yo'q zinali va o'troq kutubxona-chi uchun hojatxonali olamni faqatgina Tangri yaratishi mumkin. Ilohiylik va insonyilik or'tasida qandaydir jarayon yotganini anglash uchun mening qo'llim bilan muqovonga yozilgan qing'ir-qiyishi yozuvlarni kitob ichidagi bir-biriga monand: aniq-ravshan, nafosatli, tim qora, tengi yo'q simmetriyaligi harflar bilan qiyoslash kifoya.

Ikkinchidan: yozuv belgilaringning soni roppa-rosa yigirma besh-ta. Uch yuz yil oldin bu aksioma kutubxonaning umumiy nazariyasini shakkantirish va bungacha yechilmagan jumboq, deyarli har bir kitobning noaniq va tartibsiz tabiatini qoniqarli hal qilish imkoniyatini beradi. Otam o'n besh-u to'qson to'rnichi olti qirralikda ko'rigan bir kitob faqatgina MCV harflaridan iborat bo'lib, birinchisi satrdan so'ngisisiga turli tartiblarda qaytarilgan. Bu o'kalarda sevib o'qiladigan boshqa bir kitobda harflar haqiqiy labirintdan iborat edi, lekin oxirgidan oldindi sahfada «O vaqt, sening ehromlaring» deb yozilgan edi.

Ma'lumki, bitta ma'nili yoki haqqoniy ma'lumotga minglab aqila to'g'ri kelmaydigan, uyum-uyum so'zlar lash-lushi va almoysi-aljoyi so'zlar to'g'ri keladi. Menga kutubxonachilar bid'at va befoyda odat, bu tushlar va kaftidagi tartibsi chiziqlardan ma'no izlash bilan barobar deb, kitoblardan ma'no izlashni rad qilgan yovvoyi o'lda ma'lum. Ularning tan olishlaricha, yozuvni ixtiro qilganlar tabiatidagi belgilardan yigirma beshtasiga taqlid

qilganlar, lekin ulardagi o'xshashliklar tasodif bo'lib, kitoblar o'z-
o'zicha hech narsani anglatmaydilar deb ishontiradilar. Bu fikr
assosiz emasligiga guvoh bo'lamiz.

Uzoq vaqtlar o'qishning iloji bo'limagan kitoblar qadimiy yoki
ekzot tillarda yozilgan deb hisoblanar edi. Darhaqiqat, qadimgi
odamlar, birinchi kutubxonachilari, hozirgidan katta farq qiluv-
chi tildan foydalanganlar, haqiqatni ham bir necha milya
o'ngroqda dialektda gaplashadilar, to'qson qavat yuqorida esa
umuman tushunarsiz tilni ishlatajdarlar. Bularning barchasi,
qaytaraman, haqiqat, biroq to'rt yuz o'n sahifada takrorlana-
digan o'zgarmas MCVlar hech bir tilga, hatto dialektga, hatto
eng sodda tilga ham to'g'ri keimaydi. Ba'zilar harf yonidagi har-
fga ta'sir ko'rsatishi mumkin va yetmish birinchi sahifaning
uchinchini qatoridagi MCVlar xuddi shu harflarning boshqa
sahifadagi boshqa tartibda joylashganlarining ma'nosiga to'g'ri
kelmasligini aytganlar, lekin bu mujmal taxmin muvaffaqiyat
qozonmadi. Boshqalar yozuvlarni kriptogramma deb hisobladilar,
ushbu taxminni, uni ilgari surganlar o'ylagan ma'noda bo'limasa
ham, barcha qabul qildi.

Besh yuz yilcha muqaddam oly olti qirraliklardan birining
boshlig'i boshqa barcha kitoblar singari tushunib bo'imaydigan
bir kitobni topgan, lekin unda deyarli ikki sahifa bir xil satrlar bor
edi, xolos. U topilmani bir daydi shifrlovichiga ko'rsatganda matn
portugal tilida yozilganligini aytgan bo'lsa, boshqalar idish
(yahudiy)da yozilgan deb hisoblaganlar. Bir asr ham o'tmay
topilmaning tili anqliandi: klassik (*mumtoz*) arabcha qo'shimchali
guaran tilining saold-litva shevasi. Uning mazmunini ham tush-
unishga muvaffaq bo'lindi: kombinatorli tahsil bo'yicha, cheksiz
variantlar takrorlanuvchi misolar bilan ko'rgazma qilingan sharhlar.
Ushbu misolar bir daho kutubxonachiga Kutubxonaning asosiy
qonunini ochish imkonini berdi. Bu mutafakkir barcha kitoblar
bir-biridan qanchalik farq qilmasınlar, bir xil unsurlardan tashkil
topgan; satrlar va harflar orasidagi masofa, nuqta, vergul, alif-
bening yigirma ikki harfidan deb qayd qildi.

Uning o'zi barcha sayyoohlар e'tibor bergan hodisani asoslab
berdi: butun ulkan Kutubxonada ikkita bir xil kitob yo'q. Ushbu

inkor qilib bo'lmas nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda men
Kutubxona barcha narsalarni qamrab oladi va uning tokchalaridan
yigirma nechtadir imloviy begilarning (ularning soni hisobsiz
bo'lsa-da, cheksiz emas) turl-tuman birikmalarini yoki barcha
tillarda ifodalash mumkin bo'lgan hamma narsani topish mumkin
degan xulosaga kelaman. Barcha narsalarni: kelajakning mukammal
tarixini, farishatalarning tarjimayi holini, Kutubxonaning ha-
qiqiy, asl katalogini, ming-minglab soxta kataloglarni, asl katalogning
soxta ekanligining isbotini, Vasslidning glostisi (*bilish falsafa-si*) Injilini, ushu Injilga sharhni, Injil sharhiga sharhlarini, har
bir kitobning barcha tillarga tarjimasini, har bir kitobning barcha
kitoblarga interpolatsiya (*ko'chiruvchi yoki tarjimon tomonidan
originalga o'zgartirish kiritish*)sini, yozilishi mumkin bo'lgan (Jekin
yozilmagan) risolani, saksalar mitologiyasi bo'yicha Bedoyni, Tatsit-
ning yo'qotigan asarlarni.

Kutubxona barcha kitoblarni qamrab oladi deb e'lon qilingandagi
ilk tuyg'u - cheksiz quvonch tuyg'usi bo'ldi. Har kim o'zini maxfiy
va hech kimning qo'li tegmagan xazinaning sohibi deb his qilardi.
Har qanday shaxsiy yoki umumjahon muammolariga olti qirra-
liklarning birontasida asosil dari bilopillarda. Olam ma'no kasb etdi,
olam qo'qisdan umid misol ulkan bo'lib qoldi. Bu davrda oqlashlar
haqida ko'p gapirildi; madhiya va bashorat kitoblari koinotdag'i
har bir odamning kirdikorlari umrbod oqlanardi va kelajagini
ajoyib sirlari saqlanardi. Minglab orzumandlar o'zlarining qadrdon
olti qirraliklarini tark etib, oqlanishlarini topish uchun behuda
yugurishib zina bo'ylab yuqoriga intildilar. Bu piligrim (*sayyoh
ziyoratchi*)lar tor galereya (*uzun tor yo'lak*)larda xirillab qolguncha
bahslashardilar, mudhish la'natlar yog dirardilar, ajoyib zinalarda
bir-birlarini bo'g'ishar, ularni altdagan kitoblarni tunellar qa'riga
uloqtirishar, uzoq viloyatlardan kelganlar tomonidan yugoridan
tashlab yuborilib vafot etardilar. Ba'zilari aqdan ozardilar... Darha-
qiqat, olqishlar mavjud (menga kelajak odamlariga, ehtimol o'ylab
topilmaganlarga, tegishli ikkitasini ko'rish nasib qilgan), biroq
qidiruvga tushganlar o'z oqlovlarini yoki uning qandaydir buz-
ilgan variantini topish nolga tengligini yodlaridan chiqarib
qo'yanlar.

Yana o'sha paytlarda hamma insoniyatning asosiy sirlari ochilishi kutardi: Kutubxonasi va vaqtning paydo bo'lishini, ehtimol, bu sirlarni quyidagicha izohlash mumkin: agar faylasularning tili yetarli bo'Imagan bo'lsa, rango-rang Kutubxonasi zarur bo'lgan, ilgari bo'Imagan til, lug'atlar va bu tilning grammatikasi yaratilgandir.

Mano to'rt yuz yildan buyon odamlar olti qirraliklarda tentirab yurdilar...

Rasmli izlovlchilar, inkvizitorlar mavjud. Men ularni o'z burchilarini bajarayotganda ko'rganman: ular har doim charchagan holda keladilar, mayib bo'lislariiga bir banya qo'lgan pilapayosi yo'q zinalar haqida gapiradilar, kutubxonachi bilan galereyalar va zinalar haqida gaplashib o'tiradilar, ba'zida eng yaqin kitobni oladilar va betavfiq so'zlarni qidirib varaqlaydilar. Hech kim hech narsa topishga umid qilmyotgani ko'rindir turardi.

Tabylik, umidlar o'rnini bitmas-tugannas tushkunlik egalladi. Qaysidir olti qirralikning qaysidir tokchasiida bebabu kitoblar yashirib qo'yilgan va bu kitoblarga yetishib bo'lmaydi degan o'y-xayollarga chidab bo'imasdi. Xudoga, dingga-qarshi bo'lgan bir mazhab (sekte) barchani qidiruvlarni tugatishga hamda favqulodda tasodif tufayli bu muqaddasit kitoblar qayta yaratilishiha qadar harf va belgilari tartibini o'zgartirish bilan mashg'ul bo'lisingha chaqirdi. Ma'murlar keskin choralar ko'rishni lozim topdilar. Mazhab faoliyatini to'xtatdi, lekin men yoshligimda kiyimxonada metall kubiklar solingen, taqiqlangan stakan bilan uzoq o'tirib ilohiy mantiqsizlikni o'xshatishga behuda uringan qariyalarni ko'rganman.

Boshqalar, aksincha, eng avval keraksiz kitoblarni yo'q qilish kerak deb hisoblaydilar. Ular olti qirraliklarga bostirib kirib, har doim ham soxta bo'Imagan hujjalarni ko'rsatadilar, kitoblarni jirkanib varaqlaydilar va butun boshti tokchalarini yo'q qilishga mahkum etadilar. Millionlab kitoblarni ma'nisiz yo'qotishimizga ularning genetik, zohidiy jo'shqinligi sabab bo'ldi. Ularning nomlari tavqi la'natga uchradi, biroq ularning nodonligi tufayli yo'q qilingan «xazina» larga aza tutib yig'laganlar ikki ma'lum narsani yodalaridan chiqardilar. Birinchidan: Kutubxonasi ulkan va shuning

uchun ham odamlar keltirgan har qanday ziyon deyarli yo'q darajada bo'ladi. Ikkinchidan: har bir kitob noyob, tengi yo'q, biroq (Kutubxonasi borliqniga qamrab olganligi bois) bir-biridan har yoki verguli bilan farqlanuvchi yuz minglab mukammal bo'Imagan nusxxalari mavjud. Hammaning fikridan farqli o'laroq, men tozalovchilar faoliyatining asoratlari mutaaassib (fanat)lar qo'zg'atgan qo'rquv tufayli bo'rttirib yuborilgan deb hisoblayman. Ularni to'q qizil olti qirralikdagidagi odatdagidan kichikroq hajmli, qudratli suratlari bor, sehlri kitoblarni qo'lga kiritishga telbarcha bo'lgan istak yetaklanan.

O'sha paytlardagi boshqa xurofiylik ham ma'lum: odam kitob. Qaysidir olti qirralikning qaysidir tokchasiida (odamlarning taxminlaricha) boshqa barcha kitoblarning qisqacha mazmun-mohiyati bor kitob turadi: allaqaysi kutubxonachi uni o'qigan va tangrimonand bo'llib qolgan. Bu yerlarda uzoq o'tmishdagidagi ushbu xizmatching shaxsiga sig'inish asoratlarni kuzatish mumkin. Ko'plar Uni topish maqsadidagi haj ziyoratiga yo'l olganlar. Bir asr davomridagi izlanishlar natija bermadi. U yashayotgan muqaddas sirli olti qirralikni qanday aniqlash mumkin? Kimdir regressiv (ortga qaytish) uslubni qo'llashni taklif qildi: A kitobni topish uchun avval A kitobning joyini ko'rsatuvchi B kitobga murojaat qilish kerak; B kitobni topish uchun avval C kitobga qarash zarur va bu cheksiz davom etaveradi. Mening umrim mana shunday mojarolarda o'tdi. Koinotning qaysidir kitob tokchasiida barcha narsalarini qamrab olibuvchi kitob turganini aqila sig'dirib bo'lmaydi deb o'layman; sirli Tangrilardan hech bo'Imaganda bitta odam, minglab yillardan keyin bo'lsa ham, uni topishini va o'qib chiqishini illijo qilaman.

Qaytaraman, bunday kitobning mavjud bo'lisingining o'zi kifoya. Men faqat bunday bo'lishi mumkin emas degan fikrni rad qilaman. Masalan, hech bir kitob bir vaqtning o'zida zina bo'la olmaydi, garchi, shubhaisiz, bunday bo'lishi mumkinligini rad etuvchi, bahslashuvchi va isbot qiluvchi kitoblar mavjud. Agar hurmat-ehtirom, ham odillik, ham baxt menga nasib etmasa, boshqalarga nasib etsin. Mening o'rnim do'zaxda bo'lsa ham, samo bor bo'lsin. Mayli, men oyoqosti bo'lay va xo'rلانay, biroq bir lahma bo'lsa

ham, hech bo'limganda bitta mavjudotda sening ulkan Kutubxonang oqlansadi.

Dahriyalar Kutubxona uchun bema'nilik odatiy hol, onglilik (yoki hech bo'limganda ravonlik) esa deyarli ajoyib istisno deb tashdiqlaydilar. Tasodifiy jildlarni, beto'xtov pasyans o'yinida bo'lgani kabi, isbotlangan barcha narsalarni aralashirib yuboruvchi va inkor qiluvchi, aqildan ozgan ilohga o'xshab boshqalarga aylanituvchi isitmlai Kutubxona haqida mish-mishlar yuradi (men eshitganman).

Bu gaplar nafaqaqt tarbijsizlikni fosh qiladi, balki unga misol bo'la oladi, didsizlik va chorasisz nodonlikni aniq namoyon qiladi. Aslida kutubxona yigirma beshta orfografik ramzlar imkoniyati doirasidagi, lekin qip-qizil bema'nilik bo'limgan, tilning barcha strukturalarini, barcha variantlarini qamrab oladi. Balki men voqif bo'lgan olti qirraliklarning eng sara kitobi «Taraigan momoqaldiroq» unvoniga ega ekanligini, boshqasi «Gipsli akashak» va uchinchisi «Aksaksaksas mle» deb nomlanganligini gapirishning hojati yo'qdir. Bir qarashda bir-biri bilan bog'liq bo'limgan bu nomlanishlar, shubhalar, yashirin yoki istiorali ma'noga ega, u yozilgan va kutubxonada mavjud.

Men harflarning qanday birkilmalarini yozmay, masalan: d x s m r l ch d y... ilohiy kutubxonaning biror sirlari tilida qandaydir dahshatlari ma'noga ega bo'ladi va bu tillarda Tangrining quadratli nomini anglatadi. Gapirmoq – bu tavtologiya (*bir fikrni boshqa so'zlar bilan takrorlash*) larga g'arq bo'lmoqdир. Mening bu – ezma va keraksiz – asarim, unga yozilgan raddiyati ham sanqosiz olti qirraliklarning biridagi beshta tokchalarining biridagi o'ttiz tomli kitoblarining birida allaqachon bor (mavjud tillarning p soni) bir xil so'z zaxirasidan foydalanadi, ba'zi tillarda «kutubxona» so'zinинг то'г'и talqini ehtimoldan xoli emas; «olti qirrali galereyalarning barcha narsalarini qamrab oluvchi va doimiy tizimi», biroq bunda «kutubxona» «non» yoxud «ehrom», yoinki boshqa qandaydir predmetni anglatadi va uni ta'riflovchi oltita so'z ham boshqa ma'noni bildiradi. Sen ushu satrini o'qiyotgan, mening tilimni tushunayotganingga ishonching komilmi?

Yozish odati meni odamlarning hozirgi ahvoldidan chaig'itadi.

Hamma narsa yozib bo'lingan degan ishonch bizni yo'q qilib tashlaydi yoki arvohlarga aylanitiradi.

Men yoshlari kitoblarga sig'inadigan va birorta ham harfini o'qiy olmasa-da, majusiyalarga xos jo'shqinlik bilan uning sahifalarini o'padigan joylarni bilaman. Epidemiyalar, bid'atga eid nizolar, muqarrar bosqinlarga aylanib ketuvchi muqaddas joylarni ziyorat qilishlar aholi sonimi deyarli o'n marta kamaytirdi. Men yil sayin ortib borayotgan o'z joniga qasd qilish (suitsidilar haqida gapirgan edim, shekili). Balki qo'rquv va qarilik meni chalg'itayotgandir, lekin tengi yo'q insoniyat yo'q bo'lish arafasiga kelib qoldi deb o'layiman, Kutubxona esa saqlanishni qoldi: charog'on, kimzasiz, mutlaqo sokin, qimmatbaho jiddlar bilan to'la, keraksiz, abadiy, sirlar.

Men hozirgina bepoyon deb yozdim. Men bu so'zni ritorika (*dabdbaba, quruq so'z*)ga moyilligomidan ishlatayotganim yo'q, o'ylashimcha, dunyo deb hisoblash mantiqqa zid emas. Uni cheklangari deb o'layotganlar qayerdadir, uzoqlarda yo'lakdar ham, zinapoyalar ham, olti qirraliklar ham nomra'lum sabablarga ko'ra tugashi mumkin deb hisoblaydilar – bunday faraz bema'nillikdir. Ular cheksiz deb tasavvur qilayotganlari, bo'lishi mumkin bo'lgan kitoblar soni cheklanganligini yodlaridan chiqaradilar. Men bu azalay muammoni quydigicha yechishni taklif qildim – Kutubxona cheksiz va davriy. Agar doimiy daydi biron-bir yo'nalishda yo'iga tushgan bo'lsa, asrlar o'tib o'sha kitoblar o'sha tartibsizlikda qaytarilishiga amin bo'lar edi, u (tartibsizlik) qaytarilganligi uchun tartibli Tartibga aylanadi. Bu nafis umid mening yolg'izligimni bezab turadi.

Amaliy mashq'ulot rejasি

1. «Bobil kutubxonasi» novellasi sarlavhasi poetikasi. Aliyuzyiyalar poetikasi.
2. Novella matnidagi «o'yin», «klassifikatsiya», «labirint» principiplari.
3. Olam-kutubxona metaforasi va uning ma'no maydoni.
4. «Bobil kutubxonasi» novellasining falsafiy problematikasi.
5. «Bobil kutubxonasi» novellasi matnining metaforik tabiatli

Muhokama uchun savollar

1. «Bobil kutubxonasi» novellasi ko'plab tanqidchilar va tad-qoqtichilar tomonidan yozuvchining eng yaxshi kitobi deb ta'kidlangan «Uydirmalar» to'plamiga kiritilgan.

Borxesda uydurma tushunchasi fantastik ma'nosiga yaqin turadi. «Adabiyot realizmida emas, fantastikadan boshlangan; fantastikaga kosmogoniya; xalq dunyoqarashini aks ettruvchi mifologiya kira-di», – deb yozadi adib. Shuningdek, u adabiyot tarixida bir necha mavzular to'xtovsiz takrorlanishini ta'kidlagan. Bunday mavzular qatoriga: evrilishlar mavzusi, shaxsning ikkiiga ajralishi yoki o'zligini yo'qitib qo'yishdan qo'rqish mavzusi; tilsimlar mavzusi; tush va ro'yo, vaqt bo'yab sayohat mavzularini kiritish mumkin.

Borxes falsafa (ushbu fanni u fantastik adabiyotga kiritadi) va adabiyot bir-biriga yaqin, o'xshash ekanligini va o'zining Kab-bala, nasroniyalar teolojiyasi, buddizm, so'fizm, daosizmga bo'lgan ko'p yillik qiziqishi sababi fantaziyanı badili ifoda qillishning yangi imkoniyatlari topishga bo'lgan intilishi ekanligini ko'p bora ta'kidlagan.

Yozuvchi o'zining o'smirlig davrida yozilgan she'rlariga xos bo'lgan «vizual» metaforalardan voz kechib, prozada ham, she'riyatda ham murakkab intellektual prozaga murojaat qiladi. Uning metaforalari alohida predmet yoki obrazga emas, butun matnga aloqador.

Borxesning aksariyat novellalari matnining metaforik tabiatini muallif tomonidan yaratilgan olamning ommaiy (total) uydurma muhitiga olib kirdi. Uning novellalarida asosiy «voqe» harakat, g'oyaning qaytadan ko'rib chiqilishi hisobiga sodir bo'ladi, hikoyalarda paradosksllik va mantiq, matematikaaniqlik va mistik intilish uyg'unlashib ketadi. Borxes ushubidagi bo'ziga xoslik tanqidchilar tomonidan «Borxes algebrasi» deb nomlandi.

«Bobil kutubxonasi» novellasiida sarlavhasidayoq namoyon bo'lgan metaforik fon o'zining yorqin ifodasini topgan. «Bobil» va «kutubxona» so'z-obrazlari qanday assotsiatsiyalarni ifodalaydi?

5-MAVZU. ERNEST XEMINGUEY

(1899 – 1961)

«Yomg'irda qolgan mushuk»
hikoyasining g'oyaviy-badiiy o'ziga
xosligi

Yozuvchining vazifasi – haqiqatni so'zlash. Uning haqiqatga sodiqligi shu darajada yuksak bo'lishi kerakki, u tomonidan tajribasiga tuyangan holda o'ylab topilganlar har qanday faktlarning bayonidan ko'ra ko'proq haqqoniy tasvirni berishi kerak.

Odamzdoni yanchib tashlash mumkin, biroq uni bo'ysundirish mumkin emas.

E.Xeminguey

XX asr tengdoshi bo'lgan Ernest Xeminguey davrning asosiy voqealariga guvoh bo'idi. U o'z davri va o'zi bilgan odamlar haqida yozdi, yozganda ham haqqoniy, aniq, hayron qolarli darajada lo'nda, sodda va teran yozdi. Uning mahorati ham aynan shunda edi. Bayotlik paytidayoq u Amerika prozasining klassigi sifatida tan olingan edi.

«Yozuvchining vazifasi o'zgarmasdir, – der edi Xeminguey. – Uning o'zi o'zgarishi mumkin, biroq vazifasi muqimligicha qoladi. Ya'ni haqqoniy yozish kerak va haqiqatni anglagach, uni shunday bayon qilish kerakki, u o'quvchining ongiga o'z tajribasining ajralmas qismi sifatida singsin» (Хемингуэй Э. Писатель и война: Речь на 2 Конгрессе американских писателей // Писатели США о литературе. В.2-х т. – М., 1982. – С.90).

Xeminguey o'quvchilik yillaridavoq yozishni boshlagan edi. Uning maktab gazetasi uchun yozgan adabiy asarlari va maqolalari ustozlari hamda tengqurulari tomonidan yuqori baholangan.

Maktabni tamomlagan Ernest gazetada muxbir bo'lib ishlay boshlagdi va tajribali jurnalistlardan yozish sirlarini, «oddii narsalar haqida sodda yozishni» o'rgandi. Matbuotda ishlab yurgan



Xeminguey o'z uslubini shakllantirdi va uni «telegraf» uslubi deb atadi.

Birinchi jahon urushining so'nggi yili o'n sakkiz yashar yig'itcha sanitar qo'shmlari bilan frontga keladi, avval Fransiyada, keyin Italiya shimalidagi janglarda ishtirok etadi va 1918-yilning iyulida og'ir yaralanib, Milandagi gospitalda uch oy davolanadi. Barcha ko'r-gan-kechirganlari haqida reportajlar yozadi, keyinchalik esa urush mavzusiga uning ijodida netakchi o'rinni egallaydi («Bizing zamonda» hikoyalar to'plami (1925), «Quyosh baribir chiqaveradi» (1926) va «Alvido, quro!» (1929) romanlari).

Urush mavzusiga bag'ishlangan asarlar ichida Xeminguey fransuz yozuvchisi Anri Barbyusninin «Olov» romaniga yuqori baho berib, «U birinchi bo'lib maktab yoki talabalar partasidan to'g'ri urush domiga tushgan yoshlarga bu ommaviy, mudhish qotilliklarga qarshi norozilik bildirish mumkinligini ko'rsatdi», — deb yozgan edi.

Xemingueyning butun ijodiy faoliyat davomida ikki mavzu yetakchilik qiladi — urush va tabiat mavzulari. Yozuvchi go'zallik va tabiat ulug'vorligini urushning shafqatsizliklariga qarshi qo'yadi. Adabiyotga hikoyanavis yozuvchi sifatida kirib kelgan Xemingueyning dastlabki novellalari «yo'qotilgan avlod» vakillariga bag'ishlangan. Amerika prozasining rivojlanishida yangi davrni o'chib bergen «Bizing zamonda» kitobida u'o'z mavzusiga va original uslubiga ega adib sifatida namoyon bo'ldi. Yozuvchi urush avlodni vakillari, urush larzaga solgan odamlarning dunyoqarashini, ichki dunyosini tasvirlaydi, qahramonlarning aksariyati jamiyatga, kelajakka, o'z kuchi, imkoniyati va baxtili yashashga ishonchini yo'qotgan kishilardir. To'plamga kiritigan bir nechta hikoyalar qahramoni Nik Adams avtobiografik karakterda bo'lib, unda Xeminguey ruhiy olamidagi ziddiyatlar o'z aksini topgan. Hikoyalarning lirk qahramoni Adams yurtiga qaytgach urushni, xotiraga muhrlangan dahshatli voqealarni unutishga har qancha harakat qilmasin, bunga erisha olmaydi. U o'zining yoshligi, o'smirlik yillari, sevgisi va oilasi haqida eslaydi, yozuvchi tinch hayot haqidagi o'y-xayollarini qonli urush voqealariga qarama-qarshi qo'yadi. Asarda

individualistik xarakterda bo'lsa ham, qahramonning noroziligi bayon qilinadi.

Bir qator hikoyalarda boshqa odamlar taqdiri ham ko'rsatiladi («Uyda» hikoyasida Krebs, «Yomg'irda qolgan mushuk» hikoyasida amerikalik ayol va uning turmush o'rtog'i).

Kitobning nomi «Kundalik ibodat» hikoyasidagi quyidagi ibodat matnidan olingan: «Ey Olloh, bizning zamonda, bizga tinchlik ato et». Kitobning kompozitsiyasi ham o'ziga xos bo'lib, har bir hikoyadan oldin urush yoki buqalar jangi — korridadan episod keltiriladi. Urushdan keyingi hayot haqidagi hikoyalarning jang-u jadal sahnalari bilan almashishining o'zidayoq qahramonlar va muallifning o'ziga xos dunyoqarashi namoyon bo'ladi: urushni unutib bo'lmaydi, ular uyga qaytib yaqinlari bilan gaplashganlarida ham, baliq oviga chiqqanlarida ham, sayohatda yurganlarida ham ongda, xotirada yashayveradi («Uyda», «Nimadir tugadi», «Yomg'irda qolgan mushuk», «Big Riverda» hikoyalari).

Hikoyalardan biri «Nimadir tugadi» deb nomlangan, bu sarlavha Xemingueyning ilk ijodi davrida yaratilgan hikoyalari muhitini juda aniq ifodalagan. Nimadir tugadi, biroq hayot davom etidi va unda nimagadir suyanib yashash kerak. Nik Adams bunday tayanchni tabiat bilan muloqtda topadi («Big Riverda»). O'rmon, daryo, quyosh qizdirgan tuproq, suvning shovullashi, shamol dam bergan ko'mir gulxani — bularning bari uning ko'ngliga taskin beradi.

Xeminguey agar yozuvchi dunyonи «aniq va bir butunlikda» ko'rsa, uning xohlagan burchagini haqqoniy tasyirlashi va unda butun dunyo o'z aksini topishiga ishonar edi. U ov, baliq ushslash, buqalar jangi, yomg'ir va yaqinlashib kelayotgan oqshom haqida yuzganda katta dunyo obrazni paydo bo'ladi.

Bizing zamonda Yettinchi bob

Artilleriya o'qlari Fossalta yonidagi okoplarning dabdalasini chiqarayotganda u yuztuban yotib va terga botib sajda qillardi: «Yo Iso, meni bu yerdan olib chiq, sendan o'tinaman, Iso. Meni

o'zing asra, yo Isoyl Masih, o'zing asragin meni. Shunday qilginki, meni o'lidirmsinilar va men sen buyurgandek yashayman. Men senga ishonaman, men hammaga tanho senga ishonmoq kerakligini uqtiraman. Qutqar, qutqar meni, Iso Masih. To'p o'qlari mudofaa chizig'ining orqarog'da portlay boshladи. Biz okoplarни tuzata boshladik, tongda esa quyosh chiqdi, borliq qizigandan qizidi, kun sozin, shod va xotirjam bo'ldi. U ertasi oqshomda Mestraga qaytib borib, «Villa-Rossa»ning yuqori qavatlariga birga ko'tariayotgan qizga Iso haqida bir og'iz ham so'z aytmadи. Va hech kimga hech qachon gapirmadi.

Yomg'irda qolgan mushuk

Otelda amerikaliklardan faqatgina ikki kishi bor edi. Ular o'z xonalari ko'tariayotganda zinapoyada uchruganlarning hech birini tanimas edilar. Ularning xonalari ikkinchi qavatda bo'lib, derazadan dengiz, shuningdek, jamoat bog'i va urush qurbanlari sharafiga bag'ishlangan haykal ko'rinnardi. Bog'da baland palmalar va yashil skameykalar bor edi. Havo ochiq kumlari u yerda doimo biror-bir rassom molbert bilan o'tirardi. Rassomlar palmalar va mehmonxonalarining dengiz va bog'ga qaragan yorqin old oynalarini yotqirar edilar. Italiyaliklar urush qurbanlari bag'ishlangan haykallni ko'rish uchun uzoqlardan kelar edilar. U bronzadan yasalgan va yomg'irda yalitirardi. Yomg'ir yog'ardi. Yomg'ir tomchilar palma yaproqlaridan tornchilardi. Shag'al sepilgan yo'laklarda ko'lmaklar paydo bo'lgan. To'linilar yomg'ir ostida taram-taram bo'lib qurnioq qirg'oqqa urilib parchalanar, ortga qaytib, yana shitob bilan kelib yomg'ir ostida uzun chiziq bo'lib parchalanardi. Haykal oldidagi maydonda bironta ham avtomobil qolmagan. Ro'paradagi kafe eshidiga turgan ofitsiant bo'sh maydonga qarab turar edi.

Amerikalik ayol deraza oldida turib bog'ni kuzatardi. Xonalari derazalarining shundioqqa ostida, yomg'ir suvlari tomchilab turgan yashil skameyka ostida bir mushuk yashirinib olgandi. U tomchilar tegmasligi uchun g'ujanak bo'lib olgan edi.

— Men pastga tushib miyovxonni olib kelaman, — dedi amerikalik ayol.

— Men boraqolay, — dedi karavotda yotgan eri.

— Yo'q, o'zim. Bechora miyovxon! Yomg'irdan stolning ostida yashirinibdi.

Eri karavotda yarim yotgan holda boshi ostiga ikkita yostiqni qo'yib olib o'qishini davom ettirdi.

— Ehtiyyot bo'l, ivib ketmagin, — dedi u. Amerikalik ayol zinapoyadan pastga tushdi va vestibyuldan o'tayotganda mehmonxona xo'jayini o'rnidan turib ehtirom bilan salomlashdi. Uning stoli vestibyulning oxiriga qo'yilgan edi. Otel xo'jayini baland bo'yli qariya edi.

— 11 roive, — dedi amerikalik ayol. Unga mehmonxona xo'jayini yoxqardi.

— Si, Si, signora, brutto tempo. Bugun havo juda yomon.

U nim qorong'i xonaning oxiridagi kontorka oildida turardi. U amerikalik ayolga yoxqardi. Ayolga uning barcha shikoyatlarni o'ta jiddiy qiyofada eshitishi yoxqardi. Ayolga uning ulug'vor ko'rinishi yoxqardi. Ayolga uning xizmat qilishga bo'lgan intilishi yoxqardi. Ayolga uning o'zining mehmonxonasi xo'jayini mavqeyini saqlashi yoxqardi. Ayolga uning salmoqli yuzi va katta qo'llari yoxqardi.

Uning yoyishini o'ylab borar ekan, u eshluni ochildi va tashqariga mo'raladi. Yomg'ir yanada kuchliroq yog'ardi. Kafe tonomaga bo'mbo'sh maydonni kesib o'tib, rezina palto kiygan bir erkak kelardi. Mushuk qayerdadir yaqin o'rtada, o'ngroqda bo'lishi kerak. Balki araqi (karniz) ostidan o'tish imkonii bo'lar. U ostonada turganda kutilmaganda boshi ustida soyabon ochildi. Orqada har doim xonalarini yig'ishtiradigan oqsoch turardi.

— UVib ketmasligingiz uchun, — dedi u kulib italyan tilida. Albatta, uni xo'jayin jo'natgan.

Boshi uzra yomg'irpo'sh ko'tarib turgan oqsoch bilan yo'lakchadan yurib xonasining oynasi ostiga bordi. Yomg'irda yuvilgan ochiq yashil rangli stol shu yerda edi, biroq mushuk yo'q edi.

Amerikalik ayol negahon hafsalasi pir bo'lganini his qildi. Oqsoch unga qaradi.

— Na perduta gualgue cosa, signora?

— Bu yerda mushuk bor edi, — dedi yosh amerikalik ayol.

- Mushuk?
- Si, il gatto.
- Mushuk? - Oqsoch kulib yubordi. - Yomg'irda qolgan mushuk?

- Ha, - dedi u, - shu yerda, stol ostida. Qolaversa, men uni o'zimga olmoqchi edim, miyovxonim bo'lishini shunday xohlardim-ki...

U ingliz tilida gapirganda oqsochning yuzi diqqat-e'tiborning zo'rlijidan taranglashardi.

- Yuring, sinyora, dedi u, - yaxshisi, qaytamiz. Ivib ketasiz.
- Ha, mayli, yuring, - dedi amerikalik ayol.

Ular shag'al sephilgan yo'lakchadan yurib ortga qaytdilar va uyg'a kirdilar. Oqsoch soyabonni yopish uchun kirish yo'lida to'xtadi. Amerikalik ayol vestibyuldan o'tayotganda pardone kontorkasi ortidan unga bosh egib salom berdi. Uning ichida nimadir beitsiyor usilib ketgandek bo'ldi. Pardonening oldida u o'zini juda kichkina va shu vaqtning o'zida nufuzli his qildi. Bir daqiqa u o'zini haddan tashqari nufuzli sezdi. U zinapoyadan yuqoriga ko'tarildi. Xona eshigini ochdi. Jorj karavotda yotib o'qirdi.

- Ko'sh, mushukni olib keldingmi? - so'radi u kitobni qo'yarkan.

- Allaqachon ketib qolibdi.

- Qayoqqa yo'qolibdi ekan? - dedi u bir soniyaga kitobdan boshni ko'tarib.

Ayol karavotning chekkasiga o'tirdi.

- Uni meniki bo'lishini xohlardim, - dedi u. - Negaligini bilmadim-u, lekin bu bechora mushukcha meniki bo'lishini juda xohlardim. Bunday bechora mushukchaning yomg'irda qolib ketishi yaxshimas.

Jorj yana o'qishda davom etdi.

Ayol pardox stoli yoniga borib, ko'zgu oldiga o'tirdi va qo'l ko'zguchasini olib o'ziga razm sola boshladi. U oldin o'z profil (*yon tomoni*)ni bir tomonidan sinchilab qaradi, keyin boshqa tomonidan. So'ng gardani va bo'yinini ko'zdan kechirdi.

- Sen nima deb o'yilaysan, sochimni o'stirsammikin? - deb so'radi u yana o'z profiliqa qarab.

Jorj boshini ko'tardi va uning o'g'il bolalarnikiga o'xshash sochlari kalta qirqilan gardanini ko'rди.

- Menga hozirigiday turishi yoqadi.

- Jonimga tegdi, - dedi u. - O'g'il bolaga o'xshash shunday jonga tegdi.

Jorj gavda holatini o'zgartirdi. U ayoli gapira boshlagandan beri undan ko'zini uzmasdi.

- Sen bugun juda chiroylisani, - dedi u.

Ayol ko'zguni stol ustiga qo'ysi, deraza oldiga borib bog'ni kuzata boshladi. Qorong'i tusha boshladi.

- Sochlarni mahkam siqib bog'lashni va ular silliq bo'lishini va gardanimda katta tugundek bo'lishini va ularni ushlab ko'rish mumkin bo'lishini xohlayman, - dedi u. - Mushugim bo'lishini, u tizzamda o'tirishi va silaganimda xurullahshini xohlayman.

- Mn, - dedi Jorj karavotden.

- Va o'z dasdurxonimda ovqatlanishni, o'zimning pichoq va sanchoqlarim bo'lishini va yana shamlar yonib turishini xohlayman. Yana bahor bo'lishini va ko'zgu oldida turib sochimni tarashni xohlayman, mushugim bo'lishini xohlayman, yangi ko'ylagim bo'lishini xohlayman...

- Jim bo'l. Kitob o'qib o'tir, - dedi Jorj. U yana o'qishida davom etdi.

Amerikalik ayol derazaga qarab o'tirardi. Qorong'i tushib bo'lgan va palmalarda yomg'ir shitirlardi.

- Baribir mushugim bo'lishini xohlayman, - dedi u. - Hoziroq mushugim bo'lishini xohlayman. Agar uzun soch mumkin bo'masa, hech bo'imaganda vaqtini ko'ngilli o'tказish uchun mushuk mumkindir?

Jorj eshitmasdi. U kitob o'qiyotgandi. Ayol derazadan chiroqlari yoqilayotgan maydonga qarardi.

Kimdir eshikni taqillatdi.

- Avanti? - dedi Jorj. U ko'zlarini kitobdan ko'tardi.

Eshik oldida oqsoch turardi. U vazminligidan qo'llarida osilib turgan katta olachipor mushukni bag'riga mahkam bosib turardi.

- Kechirasiz, - dedi u. - Buni padrone sinyoraga berib yubordi.

Uslubiy ko'rsatmalar

Xemingueyning har qanday hikoyasini tahlil qilish – murakkab vazifa. Hatto juda nozik did bilan yondashilganda ham asarning yaxlitligini, emotsiyalari ta'sirini buzib yuborish mumkin. Bu ma'noda Xemingueyga A.Qahhor yaqin turadi. Ularning asarlarida muallif ohang (intonatsiya) va tagma'no muhim.

Amaly mashg'ulotning maqsadi imkon qadar zamonaviy hikoyachilik san'atini egallagan yozuvchining badiiy mahorat sirlarini ochishiga intilishdan iborat. Hikoyalarda qahramonlarning kayfiyatiga his-tuyg'ularidagi nozik o'zgarishlar ifodalanadi. Ular haqida to'g'ridan to'g'ri aytilmaydi, voqealar bayoni yo'q, yozuvchi ular haqida hikoya qilmaydi, u qahramon hayotining qaysidir bir lahzasini tasvirlaydi, go'yo muhim bo'limagan detallarini eslatadi, ammo bularning barchasidan olam va vaqt obrazini barpo qiladi.

Matnda to'g'ridan to'g'ri ifodalanmagan, biroq detallar va replikalardan, ohangdan, bayon qilishning muomalasidan tushunarli bo'ladijan tagma'no muhim ahamiyatga ega. Xeminguey badiiy usulining bu o'ziga xos ko'rinishi «aysberg prinsipi» nomini olgan. Barcha narsalar haqida qisqa, aniq, lo'nda aytildi, biroq tagma'noning tubida ko'p narsalar yashiringan: azob-uqubat, umidsizlik, ishonch, befarqlik.

«Uyda» hikoyasida o'quvchi oldindan artilleriya okoplarni o'qqa tutishi voqeasi haqida xabardor qilinadi. Hikoyaning prologida ushu dahshatni boshidan kechirgan qahramonning nomi aytilmagan. Keyinroq, hikoyaning o'zida, kollej partasidan to'ppato'g'ri urushga ketgan va 1919-yilning yozida Shtatlarga qaytgan Krebs haqida hikoya qilinadi. U ko'plab janglarda ishtirok etgan bo'lsa-da, «urush haqida gapirishni xohlamasdi». Vatanida uni o'rabi turgan odamlar go'yo boshqa tilda gaplashardilar, «ular yashab turgan dunyo u yashayotgan dunyoga o'xshamasdi». Uyga qaytgan Krebs o'zini o'z uyida his qilmasdi. Yangi dunyoga kirish uchun unda «na kuch va na jasorat yetishmasdi». Xeminguey o'ziga xos tarzda qayta takrorlash usulidan foydalanadi, u Krebs haqida: «U ayoli bo'lishini xohlardi, biroq unga erishish uchun

harakat qilmasdi. Hech qanday hiyla-nayrrang va quvilik ishlashni xohlamasdi. Ayollarning ko'nglini olish uchun vaqt sarflashni istamasdi. Aldashni xohlamasdi, chunki bunga arzimaydi deb hisoblardi. U o'zini bog'lashni xohlamasdi. Istaklar so'ndi. Krebs hech qanday gap-so'zni xohlamasdi. Biroq o'zi qatrashgan urush haqidagi kitobni qiziqish bilan o'qib chiqadi. «Ma'lum bo'lishicha, u yaxshi askar bo'lgan ekan. Bu tunlary bosha gap».

Xemingueyning hikoyasi «yo'qotilgan avlod» mavzusidagi romanlarning paydo bo'lishiga zamin tayyorladi. Urush olovidan tirik chiqib qayti kelganlar taqdiri haqida Remark, Oldington va Xemingueyning o'zi ham qator asarlar yozdi. «Uyda» hikoyasi yozuvchining keyingi ijodiga o'ziga xos prolog vazifasini bajardi.

«Yomg'irda qolgan mushuk» hikoyasi yanada ixcham bo'lib, atigi uch sahfadan iborat. Uni amaly mashg'ulotda o'qib chiqish maqsadga muvofov, chunki talabalar ilk taassurotlarini shu yerning o'zida bayon qilishlari mumkin.

Hikoyada tashqi hodisalarning kamliqi diqqatini tortadi. Ko'rinib turibdiki, gap ularda emas, balki qahramonlarning kayfiyatidagi harakat va o'zgarishlarda, nozik ruhiy tafovutlarni ifodalashda. Adabiyotda kundalik turmush hodisalari inson dramasini ochish uchun xizmat qilgan hollarni ko'piab uchrashit mumkin. Misol uchun, dasturxon atrofida qahramonlarning taqdiri hal bo'ladi va ular hayotidagi muhim voqealar kechadi.

Bayonning siqiligi, tavsifning lo'ndaligi oxirgi chegaraga yetkazilgan. Hikoyada ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya va yechim mavjud. Asarning har bir tarkibiy qismi uchun atigi ikki-uch ibora ishlatalgan. «Otelda amerikaliklardan faqatgina ikki kishi bor edi. Ular o'z xonalari ko'tarilayotganda zinapoyada uchranganlarning hech birini tanimas edilar». Hikoya mana shu ikki ibora bilan boshlanadi. Ular vatanidan yiroqda bo'lgan insonning yolg'izligini his qilgan, turmush o'rtog'i bilan ajralish arafasida bo'lgan, o'z uyining taftini sog'ingan ayol haqidagi hikoyaning ekspozitsiyasi bo'lib xizmat qiladi. Hikoyaning ikki asosiy qahramoni o'rjasidagi begonalashuv ortib boradi.

Tugun ham lo'nda va qisqa: «Amerikalik ayol deraza oldida turib bog'ni kuzatardi. Konalari derazalarining shundoqqina os-

tida, yomg'ir suvlarini tomchilab turgan yashil skameyka ostida bir mushuk yashirinib olgandi.

— Men pastga tushib miyovxonni olib kelaman, — dedi amerikalik ayol.

Mushukni samarasiz qidirishlardan keyin, vestibyulda ketayotib va unga ta'zim qilgan mehmonxona xo'yajinini chetlab o'tib, ayol «ichida nimadir beixtiyor yumaloqlanib junjikib ketgandek bo'ldi». Mana shu qisqa ibora — hikoyaning kulminatsiyasi. Bundan keyingilari ilgari jilovlanib kelingan his-tuyg'ularning qo'qqisidan yuzaga chiqqan oqimdir. Ayol o'z orzulari haqida uni tinglamayotgan va tinglashni ham istamayotgan, uning gapini bor-yo'gi ikki marta luqma tashlab, noaniq g'oldirab, jim bo'lib kitob o'qish haqidagi maslahat bilan bo'lgan odamga gapiradi. Jorjiga berilgan oxirgi savol javobsiz soladi: «Agar uxun soch mumkin bo'limasa, hech bo'limganda vaqtini ko'ngilli o'tkazish uchun mushuk mumkindir?» — «Jorj eshitmasdi. U kitob o'qiyotgandi».

Hikoyaning yechimi — xonada «katta olachipor mushukni» bag'riga bosgan oqsoschning paydo bo'lishi va uning «Buni padrone sinyoraga berish yubordi» degan so'zlarini.

Ko'rinish turibdiki, hikoyaning barcha ajratilgan o'rnlari ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya va yechim sifatida sharhl ravishda ko'rsatilishi mumkin, chunki asarning na boshlanishi va na yakunida aniqlik yo'q. Hayotning hali nihoyasi bor va boshlanishi bo'lgan bir parchasi olingen, biroq unisi ham, bunisi ham hikoyadan tashqarida qolgan, ular haqida faqatgina taxmin qilish mumkin. Qahramonlarning avvalgi hayoti, tarjimayi holi berilmagan. Ularning amerikalik ekanligi, Italiyaning dengiz bo'yidagi shaharlarning biridagi mehmonxonada birmuncha muddatga to'xtaganliklari, anche muddat oldin sayohatga chiqqanliklari va ayol mehmonxonalardan charchab, uyini sog'ingani ma'lum.

Hikoyada an'anaviy portret chizgilari yo'q. Ayoining tashqi ko'rinishi haqida bir necha gapdan («Sen bugun juda chiroylisan»; boshini ko'tarib uning «o'gil bolalar nikiga o'xshash sochlari kalta qirqilgan gardanini ko'rди») tasavvur qilish mumkin, xolos. Boshqa hech narsa deyilmagan. Hatto ismi ham berilmagan. U shunchaki amerikalik ayol.

Xeminguey aniqlovchini kam ishlatadi, kamdan kam hollarda sifatlardan voz kechadi. Hatto ayol o'zini ko'zguga solib o'tirganda ham uning qiyofasi haqida deyarli hech narsa demaydi. «Ayol pardoz stoli yoniga borib, ko'zgu oldiga o'tirdi va qo'l ko'zguchasini olib o'ziga razm sola boshladı. U oldin o'z profilini bir tomonдан sinchiklab qaradi, keyin boshqa tomondan. So'ng gardani va bo'yinini ko'zdan kechirdi». Ayoarning profili, uning ko'zlarini, bo'yini qanday edi? Bularni o'quvchining o'zi tasavvur qilishi kerak. Jorjning tashqi ko'rinishi haqida umumaniq hech narsa deyilmagan. Voqealar rivojida buning ahamiyati yo'qday tuyuladi. Muhimi Jorjning bo'layotgan voqealarga, ayoarning so'zlarini va istaklariga munosabati, ya'nii befarrqlik. Biroq bu haqida ochiq aytildimaydi.

Xeminguey tushuntirishdan qochadi. Biroq takrorlash usulli o'z ishini qiladi. Jorjning kiyifiyat va ayoqliga bo'lgan munosabati izohsiz ham tushunarli. Har safar Jorj haqida gap ketar ekan, turli variantlarda bir xil fikr qaytariladi: «Eri karavotda yotib, boshi ostiga ilkdita yostiqni qo'yib olib o'qirdi». Keyin: «Jorj karavotda yotib kitob o'qr edi», «Jorj yana o'qishini davom ettirdi». Faqatgina ayoarning «Jonimga tegdi» degan gapini eshitgandan keyingina Jorj holatini o'zgartirib, bir muddat unga tililib turdi. Biroq bu uzoq davom etmadidi va u yana «o'qishini davom ettirdi». Faqatgina oqsosch kirganida «u kitobdan boshini ko'tardi».

Jorj haqida aytilanlarining deyarli hammasi shu, bundan tashqari, yana beshta qisqa replika (luqma) bor bo'lib, ularga asosiy vazifa yuklangan: «Menga shu turishi yoqadi». Bu so'zlar bilan Jorj xotinining sochini uzaytirib, turmagini o'zgartirib olsa, ma'qul bo'larmikin degan savoliga javob beradi, ularda savolga javobdan ko'ra ko'proq nimadir bor. Soch turmagi haqidagi gap bor-yo'gi masalaning qobig'i, xolos. Mohiyatan gap keyingi hayot haqida boradi. Jorj: «Menga shu turishi yoqadi», — deyish hamonoq ayol: «O'g'il bolaga o'xshash shunday jonga tegdidi», — deydi. Va shundan keyinyoq: «Sochlarni mahkam siqib bog'lashni va ular silliq bo'lishini va gardanimda katia tugundek bo'lishini va ularni ushlab ko'rish mumkin bo'lishini xohlayman.. Mushugim bo'lishini, u tizzamda o'tirishi va silaganimda xurullashini xohlayman.. Va o'z dasturxonimda ovqatlanishni, o'zimming pichoq va sanchqlarim

bo'lishini va yana shamlar yonib turishini xohlayman, yangi ko'yagin bo'lishini xohlayman...» Bu so'zlarda mehmonxonalar charchab, osuda va turg'un hayotni qo'msash, so'ngan muhabbat, yaqinlashib kelayotgan yo'lg'izlikni his qilayotgan aylarning kayfiyatini sezildi.

Takrorlar asarda muhim ahamiyat kasb etadi, ularning vazifalari turli-tuman. Takror hikoyaning boshlanishidayoq uchraydi: «Ularning xonalari ikkinchi qavatda bo'lib, derazadan dengiz, shuningdek, jamaot bog'i va urush qurbanlari sharafiga bag'ishlangan haykal ko'rinaridi». Shu gapning o'zidayoq qandaydir bir xillik seziladi, hozircha bu qahramonlar xarakteri, munosabatlarga ishora, xolos. Keyingi takror taassurotni yanada mustahkamlaydi: «To'lqinlar yomg'ir ostida taram-taram bo'lib qumloq qirg'ozqa urilib parchalanar, ortga qaytib, yana shitob bilan kelib yomg'ir ostida uzun chiziq bo'lib parchalanar edi». Gapning oxiri uning boshlanishini so'zlarining o'rni o'zgartirilgan holda takrorlaydi. Bunda ikki maqsad ko'zda tutiladi: birinchidan, gapdag'i so'zlarining tartibi to'lqin shovullashini eslatadi, ikkinchidan, bir xil hodisalarning takrorlanishi taassurotlarni yanada chuqurlashitadi. Ayloning kayfiyatini ko'rsatuvchi takror va takror qaytarilgan «xohlayman, xohlayman» iborasi yomg'irning yog'i turishi bilan hamohang tarzda o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi: «Sochlarimni mahkam siqib bog'lashni xohlayman... mushugim bo'lishini xohlayman... o'z dasturxonimda ovqatlanishni xohlayman... shamlar yonib turishini xohlayman».

Hikoya asosini ikki planli dialog tashkil qiladi. Qahramonlarni to'lqinlantirayotgan narsalar haqida to'g'ridan to'g'ri aytilmaydi. Matn osti poetikasi Xeminguey badiiy mahoratining asosiy beigilardan hisoblanadi. Hamma narsa sharhlarsiz, tavsiiflarsiz va kengaytirilgan ekspozitsiyasiz tushunarli, bunda kalit so'zlar alohibda ahamiyat kasb etadi: ayloning nutqida bu «jonimga tegdi», Jorjning replikasida esa «menga hozirigiday turishi yoqadi». Shularning o'zi amerikalik ayol va Jorjning istaklari bir-biriga mos kelmayotganini tushunish uchun yetarli. Kengaytirilgan monologlar, qahramonlarning o'tmishiga ekskursiyalar, ularning ruhiy holatlarni chuqur tahsil qilishga o'rinn qolmagan.

Hikoyada qahramonlarni guruhshtarisht muhim. Amerikalik ayol yonida ikki erkak – Jorj va mehmonxona xo'jayini ko'rsatiladi. Jorjning ayloga munosabati haqida hech narsa deyilmagan bo'lsa, padronening xonimga yoqishi haqida butun boshli jumla aytilgan. «U amerikalik ayloga yoqardi. Ayloga uning barcha shikoyatlarni o'ta jiddiy qiyofada eshitishi yoqardi. Ayloga uning ulug'vorligi yoqardi. Ayloga uning qanday qilib unga xizmat qilishi yoqardi. Ayloga uning o'zining mehmonxona xo'jayini mavqeyini saqlashi yoqardi. Ayloga uning salmoqli yuzi va katta qo'llari yoqardi. «Uniga yoqardi» so'zlarining takrorlanishi ikki xil vazifani bajaradi. Nafaqat muallif mehmonxona xo'jayini amerikalik ayloga yoqishini ta'kidlaydi, shuningdek, ayol ham go'yoki o'zini o'zi bunga ishontirgandek. Muallif nutqi qahramonning ko'chirma gapi bilan uyg'unlashib ketadi va uning o'zligini, o'z mavqeyini tiklashga bo'lgan intilishini ifodalaydi. Xo'jayin uning ortidan yomg'irdan pana qilish uchun yomg'irpo'shni jo'natadi, o'z o'rnidan turib unga ta'zim qiladi, bunday damlardara ayol o'zini ham juda kichkina, ham e'tiborli his qiladi: «Bir daqiqaga u o'zini haddan tashqari nufuzli his qildi». Shundan keyin u o'zining profilini ko'zguda ko'rayotib «jonimga tegdi» deydi. Aynan o'zini nufuzli his qilgan daqiqqa ayloga uni anchadan beri qynab kelgan narsaga aniqlik kiritishga yordam berdi. U bir lahzagini padronening e'tibori va mehribonchiligi muhitida bo'ldi, biroq shuning o'zi ayol his-tuyg'ularining qat'iy qaror topishi uchun yetarli edi. Shubhasiz, hikoyaning finalida ayloga mushukni olib kelgan oqsochning aytgan gapi («Buni padrone sinyoraga berib yubordi»)da qahramonning keyingi taqdiriga ishora bor: bu e'tibor ayol qalbida paydo bo'lgan norozlikni yanada kuchaytiradi. Usbu iborani «endi ajralish muqarrar» deb talqin qilish ham mumkin.

Yomg'ir va yaqinlashib kelayotgan oqshom qorong'isi motivi hikoyaning boshidan oxirigacha davom etadi. Voqealar yomg'ir ostida yoki yomg'ir tovushlari jo'rligida sodir bo'ladi. Vaqtning o'tishi bir nechta qisqa, lo'nda iboralar bilan belgilangan. Hikoyaning boshida amerikalik ayol derazadan maydon, bog', palmalar va skameykalarini aniq-ravshan ko'radi. U mushukni ko'rib qoladi Jorj bilan bo'lib o'tgan suhabtdan keyin u yana deraza oldiga

borib bog'ga qaraydi. «Qorong'i tusha boshladi». Keyin ayol «qorong'i tushib bo'lganini» ko'radi. Sog'inch va katta qiyinchilik bilan jilovianib turgan umidsizlik muhitini kuchayadi. Yaqinlashib kelayotgan tun qahramonning kayfiyati bilan harnohang. Ushbu obrazlarda ayolning ruhiy kechimmalari bosqichma-bosqich ifodalangan.

«Yomg'irda qolgan mushuk» sarlavhasi poetikasida katta ma'no yotadi. Xonadon tafti va shinamligining ramzi bo'lgan mushuk yomg'irda qoladi. Ayolning mushukka va o'ziga rahmi keladi.

Xemingueyga hikoyaning boshlanishidayoq voqealar davrini ko'rsatib berish uchun bor-yo'g'i bitta shtrixning o'zi kifoya qilgan. «Italiyaliklar urush qurbanlariga bag'ishlangan haykalni ko'rish uchun uzoqlardan kelar edilar. U bronzzadan yassalgan va yomg'irda yaltirardi».

Xemingueyning birinchi kitobiga kirgan boshqa hikoyalari kabi «Yomg'irda qolgan mushuk» ham urushni ko'rgan, uning asoratlarini his qilib turgan insonlarga bag'ishlangan.

Amaliy mashg'ulot rejası (1-variant)

1. Xemingueyning «Bizning davrda» kitobining g'oyasi va kompozitsiyasi.

2. «Uyda» va «Yomg'irda qolgan mushuk» hikoyalarinining «Bizning davrda» to'plami tuzilishidagi o'rni.

3. «Uyda» hikoyasining «yo'qtoligan avlod» adabiyotining shakllanishidagi o'rni.

4. Ushbu hikoyada uy va uy obrazi mavzusining yoritilishi.

5. «Yomg'irda qolgan mushuk» hikoyasining tahlli.

Amaliy mashg'ulot rejası (2-variant)

1. Hikoyaning tuzilishi. Ekspozitsiyasi, tuguni, kulminatsiya va yechimi.

2. Qahramonlarni tasvirlash prinsiplari va Xeminguey psixologizmning o'ziga xos xususiyatlari.

3. Qaytarishlarning o'rni.

4. «Aysberg prinsipi»ning tafbiq qilinishi.
5. Remark va kalit iboralarining vazifasi.
6. Yomg'ir va qorong'ilik mavzusining g'oyaviy-kompozitsion vazifasi.
7. Umumiy xulosa: hikoyanavis Xeminguey badiliy mahoratining o'ziga xosligi.

Matnlar

Хемингуэй Э. В наше время // Собр. Соч. в 4-х т. – М., 1968. – Т.1.

Ilmiy-tanqidiy adabiyotlar

Грибанов Б. Эрнест Хемингуэй: Герой и время. – М., 1980.

Кашпон И. Эрнест Хемингуэй. – М., 1966.

Линдский Ю.А. – Творчество Э. Хемингуэя. – Киев, 1973. – С.12 – 75.

Старцев А. Молодой Хемингуэй и «потерянное поколение» / / Хемингуэй Э. Собр. Соч. в 4-х т. – М., 1968. – Т.1. – С.705 – 716.

Referat va ma'ruzalar uchun mavzular

1. «Bizning davrda» to'plamidagi asarlar qurilishi va mazmunidagi yaxlitlik.

2. Xeminguey asarlarida urushga qarshi mavzu.

3. Xemingueyning 20-yillardagi hikoyalari va «yo'qtoligan avlod» adabiyoti.

4. Xeminguey hikoyachining badiliy mahorati.



6-MAVZU. ALBER KAMYU

(1913 – 1960)

«*Kaligula*» falsafiy «g'oyalalar dramasi»da absurd tushunchasining tadqiqi

Faylasuf bo'lishni istasang, romanlar yozish kerak.

A.Kamyu

U (A.Kamyu)ning tor va sof, shufqatsiz va hissyoitli, shiddatli gumanizmi davrning qaqshatqich va majruh ta'siriga qarshi natijasi dargumon bo'lgan jang olib bordi. Shunga qaramay, o'zining sarkash, o'jar «yo'qlari bilan davrning qalbida ma'naviy negizlar ni mustahkamladi.

J.-P.Sartre

A.Kamyu absurd tuyg'usini adabiyotga bosh qahramon sifatida olib kirgan adibdir.

U.Normatov

Alber Kamyu – buyuk fransuz yozuvchisi, mutafakkiri va faylasufi, Nobel mukofoti sovrindori. Jazoir litseyida, keyinroq Jazoir universitetida o'qib yurgan yillari unga ijodkor sifatida shakllanishida katta ta'sir ko'rsaigan Nitshe, Shopengauer, Kerkegorlarning falsafasi, Jid, Prust, Malro asarlarini bilan yaqindan tanishdi. U 1935-yili ko'chma «Mehnat» teatrining tashkil etilishi bosh-qosh bo'ldi. 30-yillar oxirlarida Kamyu «Ekip» teatr trupasi bilan butun Jazoirni kezib chiqadi. Bu davrda u sahnada roller ijro etish bilan birga badiiy ijod bilan shug'ullanishni ham kanda qilmadi. «Astar va yuz» (1937) esselar to'plamining muallifi bo'lgan Kamyu 1938-yilda «*Kaligula*» falsafiy dramasini yozdi (birinchi variant). Shundan so'ng unga katta shuhrat kelitrgan «Begona» (1942) qissasi, «Sizif haqida asotir» (1942) esselar to'plami, «Vabo» romanini, «Isyonkor odam» (1951) falsafiy traktati, «Qulash» (1956) qissalarini yozildi. Esselari uchun haqli ravishda «Aqllar hukmdori» deyishgan.

1945-yilli yozuvchi «*Kaligula*» dramasini qayta ishladi va u Parida sahnalashirildi (bosh rolni mashhur aktyor Jerar Filip ijar etgan). Illi tomoshabinlar dramani fashizmga qarshi qaratilgan asar, Kaligulanı esa o'ziga xos «antik davr Gitler» sifatida qabul qildilar. Ikkinci jahon urushidan keyinoq qo'yilganligi sababi bunday baho qaysidár ma'noda o'zini oqlashi mumkindir, biroq «*Kaligula*» tarixiy emas, balci falsafiy drama. Falsafiy janrlarda asosiy o'rın personajlarga emas, asarning haqiqiy qahramonlariga aylangan falsafiy g'oyalarga emas. Bunday yo'naliş o'ziga xos badiiy vositalarni talab qiladi. Shu sababli ham «*Kaligula*» dramasini talabalar tahsil qilishi maqsadiga muvofiq.

Kamyuning falsafiy qarashlari tadrijiy tarixiy sharoit bilan bog'liqidir. Uning o'zi asarları ikki turkumga bo'linishi haqida gapiradi. Dastlabki absurd mavzusiga «Sizif haqida asotir» esesi, «Begona» qissasi va «*Kaligula*» pyesasi kiradi. Bu turkumga kiran ga asarlarida absurd tushunchasi ekzistensializmning asosiy tamoyil ekanligi tadqiq etiladi. Inson Sizif kabi bema'ni hayot kechirishiga mahkum etilgan. Shu sababli u vaqt-i vaqt ni bilan «isyon» ko'taradi, stixiyali ravishda najot izlaydi. Hayot absurdga bo'yin egish yoki u bilan kelishmay yashashni taqozo etadi.

Rim imperatorining nomi Kamyuning kundaliklarida ilk bora 1937-yilning yanvaridan uchray boshladı: «Kalogula yoxud o'limning ma'nosi. 4 akte». «Bizning davrimiz qadriyatlarga ishonganligi va bizni o'rab turgan dunyo, hayotimiz absurd bo'lishdan xalos bo'lsa, go'zal bo'lishiga ishonganligi uchun halok bo'imloqda». Kaligulaning bu so'nggi so'zlarida muallifning falsafasi o'z aksini topadi.

Pyesa dastlab «*Kaligula yoki O'yinchি*» deb nomlangan bo'lib, unda adib rus yozuvchisi F.M.Dostoyevskiyning ijodiy ta'sirida bo'lganligi o'z aksini topgan.

Kamyugacha Kaligula obraziga fransuz adabiyotida R.Rollan murojaat qilgan bo'lib, u o'zining «Halokat» trilogiyasiga «*Kaligula*» (1893) pyesasini kiritgan edi. Kamyuning kundaliklarida ushu asar bilan tanish ekanligiga hech bir ishora bo'masa-da, har ikki asar bosh personaj amal qilgan bir umumiy g'oya – *hayotni ma'nomazmundan mahrum qiluvchi o'limning qadratiga ishonch g'oyasi* bilan hamohang. Kamyudan bevosita oldin Kaligula tarixiga murojaat

qilgalar Grene va Monterian edilar. Yozuvchi talabalik yillari Grenening ma'ruzalarini katta qiziqish bilan tinglagan edi. Ustozi Svetoniying «On ikki Sezar hayoti» asarini «romantiklar va D'Annunzios nuqtayi nazaridan sharhab, Kaligulani aqlidan ozgan bermor deb emas, balki «yovvoyi Nitshe» deb talqin qilgan. Grene Kaligulaning «syon» haqidagi o'zining «Pasxa orrollari» esessida ham yozadi. Monterian «Istak manbayi» ocherklarida «o'zida farishtalik va vahshiylikni jamlagan jizzaki qironing «ayridatiyligiga» tasannorlari o'qigan.

Kristian Golendening guvohlik berishicha, 1937-yili Kamyu Svetoniying asarini o'qib lol qolgan. Buning sababi ham ma'lum. Kaligula avvalo ziddiyatlari shaxs bo'lgani uchun ham uning diqqatini tortgan, Svetoni bir qator faktlar bilan bu ziddiyatlarni yorqin ochib bergan. Turli materiallarni aqlidan ozish yuzaki bo'lgan va imperatorning xatti-harakatlarini bu bilan tushuntirib bo'lmaydi degan fikrga olib keladi; despotizm, ehtimol, sabab emas, oqibatdir. Bundan tashqari, Kamyu pyesasiga qandaydir umumiy ma'nno berishiga harakat qilgan. U ongi ravishda «anaxronizmlardan» qochib, sahnaga zamonaviy hayotga mos keluvchi fojeani olib chiqqan. Tragediya markazida imperatorning metafizik¹ isyoni bo'lib, Kamyu Svetoniyan bos qahramonlarning hayotiga oid voqealar negizini olgan (Kaligulaning yoshi, ba'zi bir ismlar, shuningdek, uning hayoti bilan bog'liq hodisalarga ramziy ma'nno bergan). Asar so'f metafizika pyesa bo'lib, unda shaxs va xarakterlar emas, balki dunyoqarashlar, g'oyalar, qonun-qoidalar konfliktinga urg'u berilgan. Turli «haqiqat»lar, ruhiy bezovtalik va mantiqiy labrintdagi adashishlarni to'qnashirir ekan, adib qaysidir ma'noda tajriba o'tkazadi: u muayyan xislatlarni muayyan vaziyatiga joylashiradi, ya'ni uning uchun muhimi – natija.

Aсоси sabablar tushirib qoldirilganligi sabab pyesada ikkinchi darajali qahramonlarning o'tmishi haqidagi ma'lumotlar yo'q, shuning uchun unda mahdud (o'zgalar uchun yopiq) makon paydo bo'lgandek taassurot tug'iladi.

¹ Metafizika – borilqning avvali o'zgarmas, azaliy va abadiy deb qarovich, uning hodisalarini esa bir-biridan uzlilgan va turg'un holatda tekshiruvchi falsafiy ta'limot, fan.

Muallif romantik-ekspressiv (ta'sirchan) uslubda aforizm, sirilik, inversiya (gapda so'zlarning o'rnnini almashtirish), falsafiy-mistik metaforalardan foydalaniib «g'oyalar dramasi»ni yaratadi. «Kaligula»ning makon maydoni Dostoyevskiy asarlaridagiga yaqin turadi. Inson go'yo bir necha olamlar chegarasida turadi: uning joyi tik jarilikka o'xshab ko'rinvuchi nuqtada bo'lgani sabab vaziyat o'ta keskinlashadi. Tabiatiga ko'ra didaktik asar bo'lgan «Kaligula» absurd asar emas, absurd haqidagi asar: birinchisi javob bermay faqat savollar beradi, bu yerda esa muallifning tutgan yo'lli aniq, shuning o'xi hayotga muhabbat, insonparvarlikning belgisidir. Asosiy diqqat-e'tibor inson ruhiyati, fikrlari va zamonaviy voqeelikqa qaratilgan ushbu asar hikoyat janriga yaqin turadi.

Kamyuning «Kaligula» dramasini motivlар dramasi deb atash mumkin. Ular asarning badiy mazmunini tashkil qiladi. Ulardan birini tahlilga tortish Kamyu dramasining o'ziga xosligini ko'rish imkonini beradi.

Shu o'rinda motiv atamasi mazmuniga to'xtalish lozim bo'ladi. Motiv (lotincha moveo – harakaatlantiraman) musiqashunoslikdan o'zlashtirilgan atama bo'lib, musiqada asarning eng kichik shakl birligi sanaladi. Musiqiy asar uning aynan takrorlanishi asosida rivojlanadi.² Adabiyotshunoslikda ushbu atama turli ma'nolarda qo'llanadi, xususan, motiv, sujet sxemasi (masalan, o'gay ona va soliqa qiz) yoki biron-bir buyum (masalan, ko'zgu, tumor), holat (masalan, tush ko'rish), obraz (masalan, sodiq do'st) kabi qator ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, motivlар tabiatan muayyan turg'unlikka ega bo'lib, ular yozuvchilar tomonidan yarimtayyor holda olinadi. Ya'ni o'zak saqlab qolining holda yozuvechining ijodiy niyatidan kelib chiqib turli variantlarda talqin etiladi.

«Kaligula»dagi motivlар o'zaro bog'liq bo'lib, aniq maqsadga yo'naltirilgan falsafiy va badiy tizimga ega. Dramadagi motivlар tizimida ikki darajani kuzatish mumkin. Birinchisi, predmet motivlari bo'lib, ularda «oy motivi», «ko'zgu motivi», «qon motivi»

² Адабиётшунослик луғати / Д.Куронов таҳрири остида. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б.180.

kabilar asosiy hisoblanadi. Ikkinchil, oly darajani falsafiy motivlар tashkil qiladi. Bu yerda «absurd motivi», «isyon motivi» markaziy hisoblanadi.

«Kaligula» dramasidagi motivlар tahliliga misol qilib «oy motivi»ni ko'rib chiqamiz. U «birlamchi – oqibat – xulosa» falsafiy zanjirining birinchi bo'g'iniqa taalluqli. Undagi ramziy ma'no Oyning tabily xususiyatlardan olingan: u motamsaro zaminimizni kechalari yoritib toliqqaqan, shu sabab Oy tabiat ruhinining ramzi sifatida berilgan.

Kaligula o'zining qayta tug'ilishini yong'ir ostida boshdan kechir-di, tunlari saroy xonalarida daydib yurdi – Oy uning azob-uqubatlari va chuqur xayoiga cho'mganiga guvoh bo'ldi. Sovuq va rahmsiz Oy haqiqat misoli olamning to'xtovsiz harakati, materiyaning man-gu aylanishi haqida unsiz xabar berib turadi va Kaligula uning xira tubsizligiga ko'z tikib ilohlarning bu nektarini sipporadi.⁹ U Oyni odamlashtirib, uning bilan bir bo'lib ketmoqni istaydi. «Tun-lar to'lin oy nur sochganda u oyni to'xtovsiz o'z quchog'iga chorla-di», – deb yozadli Svetony. Kaligula unga o'z qonunlari bo'yicha yashaganligi uchun havas qiladi. U Oy bilan yaqinligini his qiladi: axir, u ham Kaligula va o'llim kabi rango-rang va ulug'vor edi.

Biroq Kaligula har holda idealist va nashhatgo'y edi: Oyni odam-lashtirish bilan birga unga metafizik mazmun bag'ishlaydi. Oy uning orzusi ramzi va shu bilan birga eng asosiy istak-xoishlari chegarasi ham. XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmidagi jahon adabiy jarayonida bu vazifani devor obrazni bajarar edi (L.Andreyev, J.P.Sartr va b.). A.Kamyu uchun Oy insonning muhim hayotiy ehtiyojlari chegarasini kesib o'tuvchi devor metaforasi edi.

Devor vayron bo'lish ehtiyojini taqozo qiladi, Oy esa unga erishishni. Isbotsiz ham qabul qilinaveradigan bu qoidani bajarish im-konyati yo'qligi chuqur tragizm holatini keltirib chiqaradi: axir, yoningda yetgan Oyni ko'rish, xuddi erishib bo'lmaydigan boqiylik yoki baxtni ko'rishdek bir gap.

⁹ Гай Светоний Транквилл. Жизнь двенадцати цезарей. – М., 1990. – С.115.

Kaligula qatl etadi va ayblaydi, biroq hech narsa o'zgarmaydi. Shunda u Oyga erisha olmasligini angloydi: miyaga o'rnashib qolgan xomxayol g'oya so'nggi umid bilan so'nadi. Chirolyi metaforalar, afsuski, tutaqib ketib aytilgan xayolli gaplar edi. Indamas va befarrq tomoshabin bo'lgan Oy cho'l-u biyobonda adashib qolgan odam fojeasining ramzidir. Sarobdan qochish sarobga olib boradi: «Men boshqa yo'ldan borganim uchun ham ko'zlagan maqsadimga erisha olmadim.. Qotillik bilan vaziyatdan chiqib bo'lmaydi». Hech narsa o'z g'alabasini nishonladi, Oy esa befarq-lik bilan tug'ilish, azob-uqubatlar va ketishlarga nur sochaverdi.

Dramadagi motivlар kompleksini shu tarzda birin-ketin tahlil qilib, ushbu kompleks dinamik, «ochiq» tizim ekaniga amin bo'lamiz.

Motivlар kompleksi ramzlar, ko'prma'noli ismlardan iborat bo'lib, ularni idrok qilish xarakteri va yo'nalishi ruhiy, axloqiy, estetik, falsafiy motivlар qay darajada o'rganganligiga qarab assotsiativ aloqada bo'ladi. Dramaning kompozitsiyasi harakatning rivojanishi hisobiga emas, balki motivlarning rivojanishi natijasida harakatga keladi.

Kaligula

1-parda

3-sahna ko'rinishi

(Sahna bir necha daqiqaga bo'sh qoladi. Chap tomondan Kaligula kishi bilmas paydo bo'ladi. Uning ko'rinishi telbanamo, ust-boshi bulg'angan, sochlarini ho'l, oyoqlari loy. Qo'llarini mudom og'ziga olib boradi. Ko'zunguning oldiga boradi va unda o'z aksini ko'rib to'xtaydi. Chapdan Gelikon kiradi. Uning ko'zi Kaligulaga tushib, sahnanning chetida turib uni indamay kuzatadi. Kaligula o'giriladi va uni ko'radi). (Pauza).

4-sahna ko'rinishi

Gelikon (sahnanning bir chetidan ikkinchi chetiga). Salomlar senga, Kay.

Kaligula (o'zini erkin tutib). Salom senga, Gelikon. (Sukunat)

Gelikon. Ko'rinishingdan charchaganga o'xshaysan.

Kaligula. Ha, men uzoq dayidim.

Gelikon. Darvoqe, yo'qliging bilindi.

(Sukunat.)

Kaligula. Topish qiyin bo'ldi.

Gelikon. Aynan nimani?

Kaligula. Xohlagan narsamni.

Gelikon. Nimani xohlaganding?

Kaligula (o'zini hamon erkin tutib). Oyni.

Gelikon. Nima?

Kaligula. Ha, men oyni xohlagan edim.

Gelikon. Al! (Sukunat. Gelikon yaqinroq keladi) Nimaga?

Kaligula. Ha!. U menda yo'q narsa.

Gelikon. Ha, albatta. Endi hamma narsa joyiga tushdimi?

Kaligula. Yo'q, men uni ololmadim.

Gelikon. Taassuf.

Kaligula. Ha, shuning uchun ham juda charchadim (Sukunat). Gelikon!

Gelikon. Ha, Kay.

Kaligula. Meni aqldan ozgan deb o'ylaysanmi?

Gelikon. Men hech qachon o'ylamasligimni juda yaxshi biiasanku. Men buning uchun juda ham aqlliman.

Kaligula. Ha, albatta! Lekin men aqldan ozmaganman, aksincha, aqlim hech qachon bunchalik teran bo'imagan. Shunchaki menga imkon yo'q narsa kerakligini his qildim (Sukunat). Odatiy narsalar meni qiziqtirmaydi.

Gelikon. Bu ancha keng tarqalgan fikr.

Kaligula. To'g'ri. Biroq men buni shu paytgacha bilmash edim. Endi bilaman (O'zini hamon erkin tutgancha). Dunyoning bunday yaratilganiga toqat qilib bo'imaydi. Menga esa yoki oy, yoki baxt, yo boqylilik kerak – bir so'z bilan aytganda, mayliga jinnillikka o'xshasa ham, bu dunyoda yo'q narsa kerak.

Gelikon. Xuddi shunday mulohaza mavjud. Biroq uni oxirigacha yetkazmagan ma'kul.

Kaligula (Ornidan turib, biroq hamon bermalol). Sening bunga

aqling yetmas ekan. Aynan hech kimsha uni oxiriga yetkazmaganligi uchun ham hech qanday natija bo'imagan. Balki bor-yo'g'i izchillik yetishmagandir (U Gelikonga qaraydi). Nima haqida o'ylayotganining bilaman. Qandaydir bir ayolning o'llimi deb shuncha to'polon! Yo'q, bunday emas. Bir necha kun oldin men sevgan ayol o'lganligi esirnda. Muhabbat o'zi nima? Arzimagan gap! Bu o'lim hech narsa emas, ent ichaman; u faqat menga oyni kerakli qilgan haqiqatning belgisi, xolos. Mayliga, bu bir oz ahmoqona tuyulsa ham, oddiy va aniq haqiqat, biroq uni kashf qilish mushkul, unga chidash qiyin.

Gelikon. Bu qanday haqiqat ekan, Kay?

Kaligula (Parishon, befarqliq bilan). Insonlar o'ladilar va ular baxtsizlar.

Gelikon (Pauzadan keyin). Qo'y endi, Kay. Bu haqiqatga barcha ko'nikiib ketgan. Atrofingga qara. Bu haqiqat hech kimga tushlik qillishga xalaqtir bermayapti.

Kaligula (Daf'atan tutaqib ketadi). Unda mening atrofim yolg'on ekan-da, men esa barcha haqiqatda yashashini xohlayman! Illo men, Gelikon, ularga nima yetmasligini bilaman. Ular bilimlardan mahrum, ularning nima haqida gapirayotganligini bilguvchi ustozlari yo'q.

Gelikon. Hozir senga aytmoqchi bo'lgan gapimga xafa bo'lma, Kay. Menimcha, oldin dam olsang yaxshiroq bo'larmidi.

Kaligula (Yuvosh tortib o'tiradi). Buning iloji si yo'q, Gelikon, va endi hech qachon bo'imaydi.

Gelikon. Ne sababdan, axir?

Kaligula. Agar uxlab qolsam, oyni menga kim olib beradi?

Gelikon (Pauzadan keyin). Bu gaping to'g'ri.

(Kaligula qiyinchilik bilan o'rnidan turadi).

Kaligula. Gapimni eshit, Gelikon. Oyoq tovushlari va ovoz shovqinini eshitayapman. Sukut saqla va hozirgina meni ko'rGANINGNI yoddondi chiqar.

Gelikon. Tushundim.

(Kaligula eshik tomon yo'i oladi. O'giriladi.)

Kaligula. Ha, iltimos sendan, minba'd menga yordam ber.

Gelikon. Men bunday qilmaslikning sabablarini ko'rmayapman,

Kay. Meni ko'p narsa qiziqtirmasa-da, ko'p gaplardan xabardorman. Xo'sh, mening qanday yordamimga muhtojsan?

Kaligula. Ilojsiz narsaga.

Gelikon. Men buni iloji boricha yaxshiroq qilaman.
(Kaligula ketadi)

9-sahna ko'rinishi

Sezoniya. Seni tanimayapman. Sen hazil qilayapsan-a, shunday emasmi?

Kaligula. Unchalik emas, Sezoniya. Bu – pedagogika.

Ssipion. Bo'lishi mumkin emas, Kay!

Kaligula. Ayanh shunday!

Ssipion. Seni tushunmayapman.

Kaligula. Xuddi shunday! Gap ilojsizlik haqida yoki, aniqrog'i, bajarishning imkon bo'Imagan narsani amalga oshirish haqida ketmoqda.

Ssipion. Biroq bunday o'yining chegarasi yo'q. Bu – tentakning ovunchog'i.

Kaligula. Yo'q, Ssipion, bu – imperatorning himmati (U o'zini behol ortga tashladi). Men, niroyat, hozir hokimiyatning foydasini angladim. U iloji yo'q narsaning ilojini topadi. Hozirdanoq va kelajakda cheksiz ozodlik.

Sezoniya (Ma'yus). Bilmadim, Kay, bunga xursand bo'lish kerakmikin?

Kaligula. Men ham bilmayman. Lekin shu bilan yashash kerak deb o'layman.

(Xereya kirib keladi).

10-sahna ko'rinishi

Xereya. Qaytib kelganining eshitdim. Senga salomatlik tilayman.

Kaligula. Mening salomatligim senga tashakkur bildiradi (Pauza. To'satdan). Daf bo'l, Xereya. Seni ko'rishni xohlamayman.

Xereya. Kay, meni hayron qoldirayapsan.

Kaligula. Hayron bo'lna. Men bema'ni yozg'uvchilarini yomon ko'raman va ularning uydirmalariga toqatim yo'q. Ular o'zlarini eshitmaslik uchun gapiradilar. Agar tinglay olganlaridami,

o'zlarining naqadar arzimas, haqir ekanliklarini tushunishar va boshqa gapira olmasdilar. Hammang daf bo'linglar, kazzob guvholarini ko'targa ko'zim yo'q.

Xereya. Agar biz yolg'on gapirsak ham, bu ko'pincha bexabarlikdan. Men o'zimni aybdor deb tan olmayman.

Kaligula. Yolg'on hech qachon aybsiz bo'lmaydi. Va sizlarning aybing shundaki, sizlar tirik jonsotlarga ham, jonsiz narsalarga ham ahamiyat berasiz. Mana shunga sizlarni kechira olmayman.

Xereya. Biroq agarda yashashni istasak, bu dunyoni oqlashimiz kerak.

Kaligula. Uni oglama. Ish hal bo'lgan. Bu dunyo ma'nidan mahrum va buni angilagan hurriyatga erishadi (U o'rnnidan turadi). Men sizlardan hur bo'Imaganliklar uchun nafrathanaman. Butun Rim imperiyasida faqat men ozodman. Niroyat sizlarni hurlikka o'rgatuvchi imperator paydo bo'lganidan quvoninglar. Yo'qol, Xereya, sen ham Ssipion, do'stilik mening kulgimni keltiradi. Boringlar va niboyat Rimga ozodlik qaytarilganligini va u bilan birga buyuk sinovlar boshlanotganligini xabar qilinglar.

(Ular ketadilar. Kaligula ortga o'girildi).

3-parda

3-sahna ko'rinishi

Kaligula. Gelikon!

Gelikon. Nima?

Kaligula. Ishlaring qalay ketmoqda?

Gelikon. Qaysi ishlar?

Kaligula. Qaysi deysanmil.. Oy-chi!

Gelikon. Siljimoqda. Ammo sabr-toqat kerak. Aytmoqchi, sen bilan gaplashib olmoqchi edim.

Kaligula. Sabr-toqatim yetadi-ku, biroq vaqtim ziq. Shoshilish kerak, Gelikon.

Gelikon. Ayidim-ku, barchasi aytganidan ziyoda bo'ladi. Ammo oldin senga jiddiy narsa haqida xabar yetkazmoqchiman.

Kaligula (Go'yo eshitmagandek). E'tibor ber, u menda bo'lgan edi.

Gelikon. Kim?

Kaligula. Oy.

Gelikon. Ha, albatta. Biroq sening hayotingga suiqaqd uyush-tirilayotganidan xabarinq bormi?

Kaligula. U deyarli meniki bo'lgan edi. To'g'ri, faqatgina ikki yoki uch marta, xolos. Lekin baribir meniki bo'lgan edi.

Gelikon. Men anchadan buyon sen bilan gaplashmoqchi bo'lib turibman.

Kaligula. Bu o'tgan yilning yozida bo'lgan edi. Men unga temulib, bog'dagi ustunlar yonida silab-siyapaganimdan keyin, u oxir-oqibat tushundi.

Gelikon. Bu o'yinni bas qilaylik, Kay. Meni eshitishni xohlamsang ham, senga aytish mening burchim. Agar eshitmasang, o'zingga qiyin.

Kaligula (Hali-hamon o'z tirnoqlari bilan band bo'lib). Bu lok bir pulga qimmat ekan. Ha mayli, kel, yaxshisi oy haqida gaplashaylik. Bu avgust oyining ajoyib oqshonida bo'lgan edi.

(Gelikon taassuf bilan o'girildi va ovozi o'chib, tek qotib qoldi.)

Uning bir necha ko'rinishi bor edi. Men allaqachon yotgan edim. Avval u ufqdan qondek qizarib ko'tarildi. Keyin borgan sari tezroq ko'tarila boshladi. Qanchalik yuqori ko'tarilsa, shuncha ravshan-roq edi. Nihoyat u ushbu zimiston o'rtasida yuiduzlar shiviri eshitilayotgan sut rangli suvi bor ko'lga o'xshab qoldi. Shunda nafis, mo'ja'z va yap-yalang'och bo'lgan Oyning harorati ko'tarilib ketdi. U ostонадан o'tdi, ishonch bilan to'shagim yoniqa kelib, uning ustida sirpandi va meni o'zining tabassumi va yog'dusi bilan munavvar qildi.. Bu lok haqiqatan ham bir pulga qimmat ekan. Lekin, bilsanmi, Gelikon, maqtanchoqlik bo'limasin-u, u meniki bo'lgan.

Gelikon. Meni eshitishni va senga qanday xavf-xatar tahdid solayotganini biliishiň istaysanmi?

Kaligula (To'xtaydi va unga sinchkovlik bilan qaraydi). Gelikon, men Oyni va faqat Oyni xohlayman. Men oldindan meni o'dirishlarini bilaman. Men hali meni yashashga majbur qilishi mumkin bo'lgan barcha narsalarini tugatganim yo'q. Mana shun-

ing uchun men Oyni xohlayapman. Va sen uni olib kelmaguningcha bu yerda qorangni ko'rsatmaysan.

Gelikon. Unday bo'lsa, men o'z burchimni bajarib, senga aytishim kerak bo'lgan gapni aytaman. Senga qarshi suiqaqd uyush tilig'an. Unga Xereya rahnamolik qilmoqda. Men senga qo'liga tushirgan taxtachani qoldiraman, u senga muhim ma'lumot berishi mumkin. Uni shu yerga qo'yaman (Gelikon taxtachani oromkursillardan biriga qo'yib, eshik tomonga yo'naladi).

Kaligula. Qayoqqa ketayapsan, Gelikon?

Gelikon (Ostonadan). Sen uchun oyni qidirgani.

4-parda

4-sahna ko'rinishi

(U o'girildi. Bejo boqib ko'zgu oldiga keldi)

Kaligula. Kaligula! Sen ham, sen ham, sen aybdorsan. Sal ko'proq, sal ozroq bo'lsa ham. Ammo gunohkor bo'lmagan hech kimsha qolmagan bu nohaq dunyoda kim ham meni qoralashga jur'at etardi! (Ilojsizlikdan ko'zguning oldiga tashlanadi.) Ko'rdingmi, Gelikon kelmadı. Menda oy bo'lmaydi. Haqligingui bila turib so'nggi chegaragacha borish qanchalik og'ir. Axir, men so'nggi manzilden qo'rqaman. Qurol-yarog' jarangi! Ma'sumlik o'z tantanasiñin tayyorlamoqda. Ularning o'rniida bo'lismi xohlamsadim! Men qo'rquyapman. O'zgalsardan qo'rqaqligi uchun jirkangandan keyin o'z qalbingda ham shunday tuyg'uni his qilish qanchalik yoqimsiz. Hechqisi yo'q. Vahima ham mangu emas. Hozir men qalbirni tinchlaniruvchi bu ulkan jariikkta tashlanaman (U birmuncha ortga chekinadi, yana ko'zgu oldiga keladi. U ko'rinishidan anche tinchlangan. Yana gapirishni boshlaydi, lekin endi sekinroq va diqqat-e'tiborni to'plagan holda). Hamma narsa juda murakkabday tuyuladi. Shunga qaramay, hammasi juda jo'n. Agar Oy menda bo'lganda edi, agar menga muhabbat yetganida edi, barchasi o'zgarib ketar edi. Biroq bu changoqni qayerda qondirish mumkin? Qaysi yurakdan, qaysi ma'buddan ko'lining qa'rini topaman? (Tiz cho'kib yig'laydi.) Bu dunyoda ham, o'zga dunyoda ham mening changoq'imni qondira oluvchi narsa yo'q. Biroq

men ham, sen ham bilamiz (Ho'ngrab qo'llarini ko'zguga tormon uzatadi), agar imkonni yo'q narsa bo'lganida edi, barchasi hal bo'lar edi. Illosizlik! Men uni dunyo sarhadlaridan, vujudimdan qidirdim. Men qo'llarimni cho'zgan edim (Qichqiradi), men qo'llarimni cho'zayapman va doimo sen ko'z o'ngimida namoyon bo'lasan va seni ko'rarga ko'zim yo'q. Men noto'g'ri yo'lni tanladim va hech narsaga erishmadim. Mening erkim osoqsha emas. Gelikon! Gelikon! Hech narsa! Yana javob yo'q! Oh, qanchalik og'ir tun! Gelikon kelmaydi: biz mangu gunohkor bo'lamiz. Bu tun insонning dard-alами kabi og'ir.

(Qurohning jaranglashi, parda ortida shitirlagan ovor eshitildi. Ehtiyyot bo'l, Kay! Ehtiyyot bo'l!

(Ko'rinnas qo'l Gelikoni bo'g'izlaydi. Kaligula o'rnidan tura-di, skameykani olib, og'ir hansirab ko'zguning yoniga keladi. U diqqat bilan o'zini ko'zdan kechiradi, oldga sakrab o'z aksi hamla ni takrorlaganimni ko'rib bor kuchi bilan skarneykani ko'zguga qich-qirib uloqtiradi.)

Kaligula. Tarixga, Kaligula, tarixga!

(Ko'zgu chilparchin bo'ladi, shu onda barcha eshiklardan qurollangan fitnachilar kiradilar. Kaligula ularni telbalaracha qahqaha bilan qarshi oladi. Qari patritsy uning orqasidan uradi. Xereya - yuziga. Kaligulaning kulgisi hiqichoqqa aylanadi. Hamma do'pposlay boshlaydi. Kaligula o'llim oldi hiqichog'i aralash kulib va xirillab qichqiradi:)

Men hall tirkman!

Parda

(S.A.Xo'jayev tarjimasi)

Sizif haqida asotir

Absurd devorlar

Men dunyo absurd (bema'ni, tuturiqsiz) ekanligini aytgan edim, biroq bu haddan tashqari shoshilinch aytigan gap. O'z-o'zicha dunyo bema'ni narsa, u haqida aytish munkin bo'lgan bor-yo'q

gap shu. Irratsionallik (qonun-qoidalardan xolilik, mantiqiy bilib bo'lmaydigan) va inson ruhiyatining eng tubida aks sado beruychi hayojonli anqlik istagining to'qnashuvni bema'nildir. Absurd birday ham insonga, ham dunyoga bog'liq. Hozircha u o'tarnizdagi yagona aloqa. Absurd ularni bir-biriga shunday mahkamlaydi, bunday bog'lash faqatgina tirik jonnib boshqasiga nafrat bog'lashi mumkin. Yashash uchun chekimga tushgan u cheksiz olamda men farqlay oladigan bori mana shu. Bunga batafsilroq to'xtalamiz. Agar mening hayot bilan munosabatlarim absurd tomonidan boshqarilishi chin bo'lsa, agar men dunyo spektakliga qaraganimda bu tuyg'u borlig'imi qamrab olsa, agar bilimlarni izlash burchini menga yuklagan tuyg'uni his qilsam, men anqlikdan tashqari barcha narsani qurban qilishim kerak. Buni tasdiqlab turishim uchun u doimo ko'z o'ngimda bo'lishi kerak. Eng avval men o'z xulq-atvoriyimunga bo'yusundirishim va barcha narsada unga amal qilishim kerak. Bu yerda men halollik haqida gapirayaman. Biroq men avvalo fikr bu sahroda yashay oladimi, yo'qmi bilishni istardim.

Ba'zida fikr bu sahroni ko'rgani kelganidan xabarim bor. Bu yerda u o'z rizqini topgan va oldin arvohlarni yeb kun kechirgani ni tan olgan. Insонning o'z ruhiy holati haqida o'ylashiga oid bir qancha muhim mavzular ana shunday vujudga kelgan.

Absurdilik uni aylagan lahzadan boshlab zahil (dardchil) ehtirosiga aylanadi. Biroq bunday ehtiroslar bilan yashab bo'ladi, qalb bu ehtiroslar uyg'ongan onda yonib, kulga aylanadi deyilgan asosiy qonunlarni qabul qilish mumkinmi? Biz, u essemizda asosiy o'rinni egallagan bo'lsa ham, hozircha bunday savolni qo'ymayapmiz.

O'z joniga falsafiy qasd qilish

...Inson ongidan boshqa absurd yo'q. Demak, o'llim bilan birga, boshqa barcha narsa kabi, absurd ham yo'q bo'ladi. Biroq dunyosiz absurd ham yo'q. Ushbu oddiy mezon bo'yicha men absurd tushunchasini o'ta muhim deb hisoblashim va bosh haqiqat sifatida qabul qilishim mumkin. Yuqorida ta'kidlangan uslubning birin-

chi qoidasi ana shunday paydo bo'ladı: agar men nimanidir ha-qiqat deb hisoblasam, men uni saqlab qolishim kerak. Agar men qandaydir muammoni hal qilmoqchi bo'lsam, mening qarorim uning biror tomonini yo'q qilmasligi kerak. Men uchun absurd yagona borliq. Gap shundaki, undan qanday chiqish kerak, shuningdek, o'z soniga qasd qilishni absurddan yo'q qilib bo'ladimi. Tadqiqotimning birinchi va yagona sharti shundan iboratki, meni yo'q qilayotganni saqlab qolish, absurdning mohiyati deb hisoblagan barcha narsamga izchil roya qilish. Men unga qarama-qarshilik va tinimsiz kurash deb ta'rif berdim.

Absurd mantig'ini so'nggi nuztagacha yetkazar ekanman, men bu kurashdan umid yo'qligi (uning umidsizlikka hech aloqasi yo'q), doimiy rad qilish (uni voz kechish bilan almashtirmaslik kerak) va ongi qonigmaslik mavjud ekanligini tan olishim kerak. Yo'q qiluvchi barcha narsa bu talablarни yashiradi yoki unga qarshi chiqadi (avvalo bu ixtilofni yo'q qiluvchi murosa), absurdni har-bod qiladi va taklif qilinayotgan shuur dasturining qimmatini tushiradi. Absurd unga qarshi chiqilgandagini ma'nio kasb etadi.

Isyonkor odam

Isyon va san'at

San'at bir paytning o'zida ham e'tirof, ham inkor etuvchi hodisalar sirasiga kiradi. «Birorta ham san'atkor voqelichkeit oxirigacha dosh berolmaydi», – deydi Nitshe. Bu haqiqat, biroq birorta ham san'atkor voqelichkeit chetlab o'tolmasligi ham haqiqat. Ijod – vah-dad ul-vujudga intilish, shu bilan birga, mavjud olamdan qo-chish, uni inkor qilish hamdir. Biroq u olamda o'zligini topolmagani, bu olam o'zligiga mos kelrnaganligi uchungina inkor qiladi. Bu inkor mohiyatiyan ibtidoga, tarix zarjirining ilk halqalariga, olam ezzulik ya yovuzlikka bo'linayotgan pallalarga qaratiladi. Isyon olam bo'linishidan boshlangan. Shu sababli san'at isyonning mohiyati bizga to'la ochib bera oluvchi vosita bo'lishi ham mumkin.

Biroq ajablanarli shundaki, inqilobchi islohotchilar haqiqiy san'atga yot ko'z bilan qarab kelishgan. Aflatunning qarashiari bu masalada hammadan oshib tushadi. Uning uchun «go'zallik ham-

ma narsadan ustun, til bor-yo'g'i jilo beruvchi vosita edi». Shu sababli u o'z davlatidan shoirlarni badarg'a qilishda tashabbuskor bo'lgandi. Zamonaviy inqilobi harakatlar ham san'atni sud qilishga kirishi. Jamiyatga madadni tabiatdan izlagan Russo san'atga xurofot deb qarardi. «Aqil tantanasi» uchun yozgan dasturida hamma narsani avval momoqaldiroq gumburlatib, so'ng yashin bilan kuydirmoqehidek taassurot qoldiradigan Sen-Jyust. Aql ma'budasini go'zallik emas, ko'proq mehr-shafqat sohibi sifatida ko'rishni istadi. Fransuz inqilobi uchar jurnalist Demulen va muxolif yozuvchi Saddan boshqa biron san'atkorning olqishiga sazovor bo'lolgani yo'q. Aksinchal, o'sha davrdagi eng ulug' va yagona shoirlarning (Andre de Shene) boshi tanidan judo etildi, yagona katva yozuvchi (Fransua Rene de Shatobrian) esa Londonga qochib ketishiga majbur bo'ldi va u yerda mutaassib taqvodorga aylandi.

Sal keyinroq «sensimonchilar» san'atning «jamiyati uchun foydali» bo'lishini talab qila boshladilar. «Taraqqiyot uchun san'at» – XIX asr aql sohiblarining birdan bir da'vosi edi, garchi haqligini isbotlay olmagan bo'lsa-da, hatto Gyugo ham shu da've bilan bayroq ko'targan edi. Faqat Vales san'atni xumori qonguncha so'kishdan va unga ma'lum vazifa yuklashdan o'zini tiydi.

Uslubiy ko'rsatmalar

A.Kamyuning «Kaligula» dramasiga bag'ishlangan amaliy mashq' ulotni turilcha olib borish mumkin. Fikrimizcha, asarni tahil qilishni adabiyotshunoslikka qaytayotgan motif kategoriyasini o'zlashtirishdan boshlagan ma'qul.

Aynan motivni to'g'ri tushunish bunday mashq'ulotning asosiy metodologik qiyinchiligi hisoblanadi. Ushbu so'z lotin tilidan olingan bo'lib, uning tub ma'nosi harakat, harakatlanuvchi kuch obrazni mavjud. XIX asr oxirida adabiyotshunoslar (A.N.Veselovskiy, V.Shkovskiy va b.) ushbu tushunchaga «sujetning eng kichik, bo'limmas birligi» degan ma'nio bergenlarda harakat haqidagi tavayvur yo'qotilgan edi. XX asrning 70-yillarda kelib u adabiyotshunoslikda deyarli qo'llanilmay qolgan edi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda motiv atamasining ma'nosi birmuncha o'zgartirilgan holda

ishlatila boshlandi: u ichki okkazional takror ma'nosini anglatla boshladi. Matnda motiv vazifasini har qanday favqulodda hodisa (fenomen), xohlagan voqeа, xarakter faziliati, tabiat elementi, buyum, aytligan so'z, rang, tovush va h.k. bajarishi mumkin.

Uslibiy nuqtayi nazardan atamaning ma'nosigina emas, shuningdek, uning yaqin ma'nodoshlari bilan farqiga e'tibor qaratish maqsadga muvofig bo'ladi. Motivning obraz, ramz, metaforalardan farqi harakat haqidagi tasavvur bilan bog'liq ravishda tushuntiriladi (demak, harakat ta'kidlanganda obrazlar, ramzlar, metaforalar motiv sifatida q'llanishi mumkin). Motivlar, sujet rivojlanishining tashqi usuli bo'lgan konfliktdan farqli ravishda sujetning badiiy tii, uning immanent (ichki) usuli hisoblanadi.

A.Kamyuning «Kalogula» asarida motivlar tizimi o'zining yor-qin ifodasini topgan, shuning uchun ham uslibiy tahsil motivlar kategoriyasini o'zlashtirayotgan talabalar uchun samarali bo'lishi tayin.

Amaliy mashg'ulot rejası (1-variant)

1. «Kalogula» dramasi yaratilgan davrda adabiy vaziyati.
2. «Kalogula» dramasining motivlar tizimi:

 - 1) buyum motivlari;
 - a) oy motivi;
 - b) ko'zgu motivi;
 - c) qon motivi.

- 2) falsafiy motiv:
- absurd motivi.
3. Dramaning obraz-personajlar tizimida Kalogula obrazi.
4. Drama kompozitsiyasi.

Amaliy mashg'ulot rejası (2-variant)

1. Absurd tushunchasi ekzistensializmning asosiy tushunchasi.
2. «Sizif haqida asotir» esesi.
3. Isyon motivi.
4. «Isyonkor odam» falsafiy pamphletida isyon va san'sat masalasi.

Matnlar

Гай Светоний Транквил. Жизнь двенадцати цезарей. – М.: Наука, 1990.

Камю А. Сочинения. – М.: Прометей, 1989.

Камю А. Исेन ва санзат // Жаҳон адабиёти. 1997. №1.

Adabiy-tanqidiy adabiyotlar

Андреев Л.Г. и др. История французской литературы. – М.: МГУ, 1987.

Давыдов Ю.Н. Этика любви и метафизика своеволика. – М.: Мысль, 1989.

Коссак Е.П. Экзистенциализм в философии и литературе. – М.: Мысль, 1980.

Луков В.А. Альбер Камю: Хроника жизни и творчества // В кн.: Камю А. Сочинения. – М.: Прометей, 1989.

Косимов А., Хўжаев С. XX аср чет эл адабиёти. – Фарғона, 2003.

Салижонов Й. Ҳақиқатнинг синичков кўзлари. – Тошкент: Ўзб. Мил. кутубхонаси, 2009.

Referat va ma'ruzalar uchun mavzular

1. Kamyuning «Kalogula» pyesasida motivlar tizimi va ularning vazifikasi.
2. Kamyuning ma'naviy-falsafiy kodeksi.
3. Kamyuning «Begona» va «Vabo» romanlarida metaforalar.
4. Kamyuning «Begonä» romanida Merso obrazi va absurdizm konsepsiyası.



7-MAVZU. A. DE SENT-EKZYUPERI (1900 – 1944)

A.De Sent-Ekzyuperi va uning
«Kichkina shahzoda» asari

Yozuvchi bo'lishiinga samolyot sababchi bo'lgan deya olmayman. Agar shaxtyor bo'lganimda ham yer ostida turib haqiqatni qidirgan bo'lar edim.

Sent-Ekzyuperi

«Kichkina shahzoda»ni o'quvchilar, odadta, ertak deb qabul qiladilar. Aslida esa lirik ertak libosidagi falaqafiy hikoyatidir.

R.Gachev

Fransuz diyori ko'plab olim-u yozuvchilarini yetkazib bergen, o'zida ham yozuvchilik, ham faylasuflik ijtidorini mujassam etgan buyuk insonlarning ko'pehligi mana shu zaminda kamol topganlar. XVII asrda B.Paskal, F.Laroshfuko, XVIII asrda yashab ijod etgan F.Volter, D.Didrolar ana shunday ijtidor sohiblari sirasiga kiradi.

XX asrga kelib Fransiya ana shunday moralistlarning navbatdagi avlodini yetkazib berdi desak, xato bo'lmaydi. Malro, J.P.Satr, A.Kamyu singari ijodkorlar mumtoz an'analarni davom ettirish barobarida adabiyotda ham o'ziga xos o'rinn va ovozga ega bo'ldilar. Antuan de Sent-Ekzyuperi (1900 – 1944) ham nafaqat fransuz adabiyotida, balki XX asr jahon adabiyotida alohida o'rinn tutuvchi yozuvchilardan sanaladi.

G'arb va rus adabiyotshunoslari A. de Sent-Ekzyuperi ijodining o'ziga xosligini u professional uchuvchi bo'lganligi va birinchilardan bo'lib o'z kasbini asarlarining asosiy manbayi, mavzusiga aylantriganligi bilan belgilaydilar. Yozuvchi ijodi haqidagi ko'plab tadqiqotiarda adib gumanizm kuychisi, patsifizm g'oyalarinig targ'ibotchisi sifatida talqin etilgan. Sent-Ekzyuperi asarlarini uning asosiy kasbi – uchuvchilikdan ayri holda qabul qilish mumkin

emas, albatta. Bundan tashqari, Sent-Ekzyuperi hech qachon o'zini professional yozuvchi deb hisoblamagan. Uchuvchilik yozuvchi hayotining asosiy mazmunini tashkil etganligi shubhasiz. Shuning uchun ham uning asarlarini o'rganish va qabul qilishda aynan uchuvchilik kasbi, ushbu mashg'ulotning o'ziga xosliklari jihatidan yondashish lozim.

Antuan de Sent-Ekzyuperi 1900-yilning 29-iyunida Lion shahrida anche qashshoqlashib qolgan zodagon oиласида tug'ildi. Sent-Ekzyuperi o'n ikki yoshga to'lganda birinchi bor havoga ko'tarildi: o'sha paytilardagi mashhur fransuz yozuvchisi Vedren uni samolyotida birga olib uchadi. Parvoz ishqiji ana shu lahzadan boshlab yosh Antuanning hayotidagi asosiy, bir umrlik maqsadiga aylangan bo'lishi mumkin.

1921-yill u ko'ngilli ravishda harbiy xizmatga otlandi. Harbiy qiruvchilar aviapolikida zo'r ishtiyoq bilan uchuvchilik sirlarini o'rgandi va transuz armiyasining leytenantini unvoniga ega bo'ldi. 1927-yilda boshlab Fransiya janubini Afrika bilan bog'lovchi pochta yo'naliishida uchuvchi bo'lib ishlaydi. Ikkinchi jahon urushidan boshlab harbiy razvedka qismalarida xizmat qildi va Fransiya mag'lubiyatidan so'ng AQShga ketishga majbur bo'ldi. Sent-Ekzyuperi tomonidan bildirilgan qat'iy so'rovlar natijasida u harakatdagi armiya safiga qaytarilgan. 1944-yilning 30-iyun kuni Fransiya janubida razvedka ishlarini olib borish uchun AQSh havo kuchlariga qarashli havo kemasida parvoz qilgan Sent-Ekzyuperi samolyoti urib tushirildi.

Sent-Ekzyuperining ijodiy merosi «Uchuvchi» novellasi (1926), «Janubiy pochtachi» (1928), «Tungi uchish» (1931), «Bashar sayyorasi» (1939) qissalari, Ispaniyadagi urush haqidagi ocherklari, 1942-yilda chop etilgan «Harbiy uchuvchi» va «Kichkina shahzoda» asarları hamda 1936-yilda vafotigacha yozib borilgan, lekin yakunlanmagan «Istehkorn» asarlarindan iborat.

Sent-Ekzyuperi uchun aviatsiya eng avvalo dunyonı o'rganish, uni kashf etish, insondagi nodrlar fazilatlarini tarbiyalash, insonlar va mamlakatlar o'rtaсидаги hamkorlikka, birodarlikka yo'l ochish vositasi edi. «Menimcha, muhimi – bizning kasbimizning buyuk quvonchilar, faqat bizning kasbimizga xos bo'lgan ixtiroblar

emas; muhim - mana shu quvonch-u iztiroblar tufayll shakllangan va bizni yuksaltirib turuvchi fazilat - hayotga bo'lgan munosabatimiz», - deb yozgan edi Sent-Ekzyuperi. Bundan tashqari, samoda parvoz qiluvchi, yuqorida turib yerni kuzatu- vchi inson boshqalarga nisbatan o'zgacha dunyoqarashga ega bo'ladi. Bir qarashda seziliavermaydigan, lekin samolyot kabinasidan nihoytida nozik va himoyasiz bo'lib ko'rindigan ona zaminimizda insonlar naqdor yolg'iz, bir-birini tushunishga ojiz ekanliglari uchuvchi Sent-Ekzyuperini tashvishiga soladi. Hayotning qisqligi, insonlar o'tasidagi mehr-muhabbat, bir-birlarini tushunib yashashga bo'lgan intilishlarning tiriklik mazmunini tashkil etishi Ekzyuperi yaratgan deyarli har bir asarning bosh g'oyasi hisoblanadi. Har kuni samolyotda parvoz qilib o'lim bilan yuzma-yuz kelishi mumkin bo'lgan Sent-Ekzyuperi uchun insonlarini birlashtirish g'oyasi naqdor muhim ekanligini tushunish qiyin emas.

Albatta, yozuvchi asarlarida uchuvchilik kasbining sir-sinoatlari va insoniyat uchun yangi soha - aviatsiyaning o'ziga xosliklariga birmuncha o'rın ajratilgan. Lekin bular uning uchun asosiy maqsad emas edi. Parvoz Sent-Ekzyuperiga hayot haqiqatini topishga, dunyoga tiyrak nigoh bilan nazar tashlashga imkon beradi. Uchuvchiyu qurordan turib «bashar sayyorasi» ni o'zicha «kashfi» qildi. U o'zini nafaqat fransuz yoki yevropalik, balki «bashar sayyora»sining «zosi, uning bir bo'lagi deb his qilganligini e'tirof etish kerak. Sent-Ekzyuperi asarlarida aviatsiya biringchi navbatda insoniy qardoshlikka eltuvchi vosita hisoblanadi. XX asr boshlarida aviatsiya hali mukammallashmagan, halokatlar va turli ko'ngilsizliklarning bo'lishi deyarli odatiy hol bo'lib, Sent-Ekzyuperining o'zi ham bir necha bor halokatga uchragan edi. U uchuvchilarining kichik jamoasini qardoshlik va insonlarga muhabbatga asoslangan jamiyatning yacheykasi yoki modelli deb bilardi.

Uchuvchilik bo'ron, to'fon,sovug, qorong'ilik singari tabiat kuchlari bilan doimiy kurashishni talab etadi. Haqiqiy inson mana shu doimiy kurash jarayonida tug'iladi va shakllanib boradi. Sent-Ekzyuperini ana shu jarayon o'ziga tortadi. U bir necha bor: «parvoz

qilish mohiyatni anglashni bildiradi (samolyot oynasidan tashqi olamni xuddi mikroskopda ko'rayotganday o'rghanasiz)», - degan bo'lsa-da, bizning nazارимизда, yozuvchi uchun samolyot kabinasida, samolyot shturvalidagi inson ruhiyatida ro'y beradigan jarayonlar muhim hisoblangan.

Sent-Ekzyuperi ijodi tadqiqotchilaridan bo'lgan D.Anening guberni, berishicha¹¹, yozuvchi o'z kasbi haqida bunday degan: «Kitoblar yozishimga samolyot sababchi deya olmayman. Agar shaxtyor bo'lganimda ham haqiqatni (enseignement) yer ostida qidirgan bo'lardim». Yozuvchi uchuvchilikni ko'pincha dehqonlarga, bog'bonlarga va duradgorlarga qiyoslaydi. Masalan, Giyome ish boshlashdan avval dursodgor singari detalni har tomonlama ko'zdan kechirib, o'lchab, taqoslab va o'rganib chiqadi. Aviatorlar mehnatini dehqonlarga mengash holatlari esa Sent-Ekzyuperi asarlarida ko'p duch kelamiz. Uchuvchi o'zini «aerodromlar debqoni» deb ataydi. Ushbu mehnat kishilarini birlashtirib turuvchi, bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan muhim jihatlar bor. Uchuvchi o'z hayotini samolyotni deb xavf ostida goldirmaganidek, dehqon ham omochni deb yer haydamaydi. Yozuvchining filkricha, kishi jismoney mehnat bilan shug'ullanish barobarida insonly tashvishlarni anglab yetadi.

Yuqoridaqlardan quyidagicha xulossaga kelish mumkin: Sent-Ekzyuperi aviatsiya mavzusini adabiyotga olib kirib XX asrdagi yangi soha kishilarini faoliyati haqida illor hikoya qildi. Shu bilan birga, u o'z kasbini sivilizatsiya, jamiyat kelajagi va insonlar taqdiri haqidagi falsafiy mushohadalar manbayiga aylantira oldi. Natijada yozuvchi jahon adabiyotida birinchilardan bo'lib uchuvchilikni ma'naviy-axloqiy kategoriya sifatida talqin etdi.

Fransuz yozuvchisining asarlari va ularning parchalari o'zbek tiliga M.Umarov, X.Sultonov, A.A'zam, A.Qosimovlar tomonidan tarjima qilingan.

¹¹ D.Anet. Antoine de Saint-Exupery. - Paris: Correa, 1946. - P.26.

Kichkina shahzoda

V

<> Kichkina shahzodaning sayyorasida ham boshqa sayyoralardagi kabi foydali va zararli o't-o'lalar o'sar ekan. Demakki, u yerda dorivor, shifobaxsh o'tlarning urug'i bilan birga zararkunanda va begona o'simliklarning urug'lari ham mavjud. Ammo urug' hali tuprog tagida mudrab yotar ekan, ko'zga ko'rinxaydi, shu bois ularning zararlimi, foydali ekanini biliш ham mushkul. Faqat yer uyg'ongachgina urug' ham asta-sekin nish urib, yorug' olam sari talipinadi, kurtak ochib barg yozadiga, quyoshta bo'y cho'zadi. Qattiq yerdan qaltilrab chiqqan chog'ida u niimjingga, bezoz bir giyoh bo'ladi. Agar u bo'lg'usi gulko'chat yoki maymunjon bo'lsa, mayli, bemalol o'sib-yuraversin; bordiyu qandaydir zararkunanda o'simli bo'lsa, tag-tomiri bilan yulib tashlash kerak. Kichkina shahzodaning sayyorasida ana shunday zararli mudhish urug'lar bor ekan – baobablarning urug'i. Sayyoraning tuprog'ida shu yovuz urug' to'lib-toshib ketgan ekan. Agar baobobni o'z vaqtida payqab yulib tashlamasa, keyin undan qutulishning iloji bo'lmaydi. U butun sayyorani egallab oladi, bahaybat, quturgan tomirlari bilan uni har tomondan chirmab eza boshlaydi. Mabodo sayyora mo'jazgina bo'lsa-yu, baoboblar son-sanoqsiz bo'lsa, u holda ular uni tilka-pora qilib tashlashi ham hech gap emas.

– Bizda shunday bir qoida bor, – dedi Kichkina shahzoda keyinchalik menga. – Ertalab uyqudan turib, yuz-qo'lni yuvgach, u yoq-bu yoqni yig'ishtirgandan so'ng darhol sayyorangni tozalashga kirishmog'ing lozim. Baobablarni har kuni kanda qilnay yo'q qilib turish kerak. Ammo ularni gulko'chatlardan ajrata biliш kerak: ikkalasining niholi bir-biriga judayam o'xshaydi. Bu hadan tashqari zerikarli ish, lekin sirayam qilyin emas.

Bir gal u mena mana shu gaplarni bizning bolalar ham tushunsin desang, bir rasmini chizib ko'rmaysanmi deb maslahat berdi.

– Agar ular qachondir safarga chiqmoqchi bo'salar, bu narsa g'oyat qo'l keladi, – dedi u. – Boshqa ishlar bir oz kechiksa ham

ziyon qilmaydi, ammo bolalarni o'z holiga qo'yib berilsa, oxiri voy bo'ladi. Men bir sayyorani bilaman, u yerda bir dangasa yashar edi. U uch tup niholni vaqtida qo'porib tashlamadi, oqibatda...

Kichkina shahzoda bu haqda batafsil so'zlab berdi, men esa o'sha sayyoraning rasmini chizdim. Birovga aql o'rgatishni yomon ko'raman, ammo baobablarning naqadar xavfli ekanini juda oz odamgina biladi, vabolanki, asteroidga qadam qo'yadigan har bir kishi muqarrar ravishda bu dahshatl xatarga duchor bo'ladi. Shu sababdan men hozir odatimga xilof tarzda: «Bolalar, baoboblardan ehtiyoj bo'lingilar!» – deb hayqirgim keladi. Barcha do'stlarimni ko'pdan buyon tahdid solib turgan shu balo-qazolardan ogoh qilib qo'ymoqchiman, chunki ular shunday xatar borligini, bir paytlar men ham mutlaqo bilmaganimdek, hatto xayollariga ham ketlirimaydilar.

Shuning uchun ham men ovora bo'lib shu rasmni chizdim, shuning uchun ham qilgan mehnatinga zarracha achinmayman. Etimol, siz nima uchun bu kitobda manavi baobablarning tasviridan boshqa birorta ham ta'sirli rasm yo'q deb so'raysiz. Bunga men oddiygina qilib shunday javob qaytaraman: boshqa rasmilar ham ta'sirchanroq chiqsin deb men rosa urindim, biroq, afsuski, qo'limdan kelmadi. Baobablarni chizayotgan paytimda esa bu chindan ham mudhish xatar, uni daf etishni aslo kechiktirib bo'lmaydi degan fikr menga ilhom bag'ishlagan edi...

X

Kichkina shahzodaning sayyorasiga 325, 326, 327, 328, 329 va 330-asteroidlar eng yaqin edi. Shu bois u dastlab ularga tashrif etishga ahd qildi: ham ermak, ham niymadir o'rganadi.

Birinchi asteroidda qirol yashaydi. Ipak-shohi liboslarga burkangancha – u nihoyatda oddiy va ayni paytda ulug'vor taxtda savlat to'kib o'tirardi.

– E, mana, fugaro ham kelib qoldi! – deb xitob qildi qirol Kichkina shahzodani ko'rishi bilan.

– U meni qayqdan bilarkin? – deb o'yaldi Kichkina shahzoda.
– Axir, umrida birinchi marta ko'rib turibdi-ku!»

Bilmasdiki, qirollar dunyoga jo'ngina qaraydilar, ular uchun jamniq odam – fuqaro.

– Yaqinroq kel, seni bir yaxshilab ko'rib qolay-chi, – dedi qiroq nihoyat kimadir qirolik qilishi mumkinligidan o'lqiguday taltayib.

Kichkina shahzoda o'tirishga joy izlab yon-veriga alanglatdi, biroq qirolning hashamador jubbasi butun sayyorani qoplab olgan edi. Tik turaverishga to'g'ri keldi. Benihoyat qattiq charchaganidan bir payt asta horumuza tortdi.

– Hukmdorlar huzurida esnash mumkin emas, – dedi qiroq. – Men senga esnashni man qilaman.

– Men... to'satdan, bilmay qolib. – dedi Kichkina shahzoda qattiq xijolat tortib. – Men uzoq yo'il yurib keldim, uxlaganim yo'q edi...

– Hay, unday bo'lsa, esnashingga ruxsat beraman, – dedi qiroq.

– Ko'p yillar bo'ldi o'zim ham birorta esnagan odamni ko'rmaniganimga. Mana, hozir rosa qiziqib qoldim. Demak, qani, esna! Buyrug'im shunday.

– Ammo... uyalaman endi... boshqa qilolmayman, – deya g'o'diradi Kichkina shahzoda va qip-qizarib ketdi.

– Himm... himm... unda, unda... senga buyruq shu: goh esra, goh...

Qiroq gapini chalkashtirib, hatto bir necha ranjigandek ham bo'ldi. Chunki qiroq uchun eng muhimi – o'ziga so'zsiz itoat qilinishi edi, u ijozatsizlik va shakkoklikka toqat eta olmasdi, chunki mutlaq hukmdor edi-da. Biroq u g'oyat oqko'ngil edi va shu vajdan faqat oqilonqa farmyoishlarga berardi.

«Agar men generalimga dengizdag'i oqchorloqqa aylanasan deb amr etsam-u, general buyrug'imi bajarmasa, – derdi u, – bu uning emas, mening aybim bo'ladi».

– O'tirsam maylimi? – deya bo'shashibgina so'radi Kichkina shahzoda.

– Amr etaman: o'tir! – deb javob berdi qiroq va viqor bilan hashamador jumbasining bir etagini picha yig'ishtirdi.

Lekin Kichkina shahzoda hayron edi: sayyora-ku shunday jimit ekan, qiroq kimning ustidan hukmdorlik qilar ekan!

– A'lo hazratlari, – deb so'z boshladi u, – bir narsani so'rasam maylimi?

– Amr etaman: so'ra! – dedi qiroq shosha-pisha.

– A'lo hazratlari... siz kimning, nimaning ustidan hukmdorlik qilasiz?

– Hammasingin, – deb javob berdi qiroq oddiygina qilib.

– Hammasingin?

Qiroq kamtarona bir harakat bilan o'z sayyorasiga, shuningdek, tevarakdag'i barcha yulduz va sayyoralarga ham ishora qildi.

– Siz shularning hammasi hukmdorlik qilasizmi? – deb qayta so'radi Kichkina shahzoda.

– Ha, – deb javob qaytardi qiroq. Zero, u chindan ham qonunyu mutlaq hukmdor bo'lib, hech qanday to'siq va cheklanishlarni bilmasdi.

– Yulduzlar ham sizga bo'y sunadimi? – deb so'radi Kichkina shahzoda.

– Bo'imasam-chi, – dedi qiroq, – yulduzlar bir zumda bo'y sunadi. Men itoatsizlikka chidab turolmayman.

Kichkina shahzoda benihoyat hayratiga tushdi. Eh, qaniydi, uning shunday qudrati bo'lsa edi, quyosh botishini to'yib-to'yib tomosha qillardir! Kuniga qirq to'rt marta emas, balki yetmish ikki, hattoki yuz yok! ikki yuz marta g'urubga termilarkan, kursichasini nari-beri qo'zg'atishga ham hojat qolmasdi! Birdaniga u o'zi tark etgan sayyorasini eslab g'ussaga cho'midi, bir ozdan keyin jur'at to'plab:

– Men quyosh botishimi tomosha qilmoqchi edim. Bir marhamat qiling, quyosh botish deb farmon bering, – dedi.

– Bordi-yu men birorta generalimga kapalak bo'lib guldan-gulga uchib yurishni yoki fojeaviy asar yaratishni, yo bo'limasa oqchorloqqa aylanishni buyursam-u, general buni bajarmasa kim aybdor bo'ladi – menmi, umi?

– Siz, a'lo hazratlari, – deya bir lahma ham ikkilanmay javob qildi Kichkina shahzoda.

– Mutlaqo to'g'ri, – deb tasdiqladi qiroq, – har kimdan qurbi yetadigan narsani talab qilish kerak. Hokimiyat eng avvalo oqilonqa bo'lishi lozim. Agar xalqingga dengizga tashlashni buyursang, u isyon ko'tarib inqilob qilib yuborishi mumkin. Shuning uchun ham men so'zsiz itoatni talab eta olaman, chunki amr-farmonlarimning barchasi oqilonadir.

— Quyosh-chi, quyosh botishi nima bo'ladi endi? — deb so'radi Kichkina shahzoda. U to savoliga javob olmaguncha tinchimas edi.

— Quyosh botadi, shoshmay tur. Men bu haqda tegishli buyruq beraman. Ammo oldin qulay vaziyat yetilishini kutib turaman, zero, hukmoldorlihik matni ham ana shunda.

— Xo'sh, qulay vaziyat qachon yetiladi? — deb surishtirdi Kichkina shahzoda.

— Himm... hozir... himm... — deya qalin calendarni titkilay boshladi qiro. — Qulay vaziyat... himm... mana bugun kechqurun soat yettidan qirq minut o'tganda yetiladi. Amr-farmonimning qanchalik so'zsiz bajarilishini ko'rasan ana shunda.

Kichkina shahzoda tag'in esnadi. Afsus, bu yerda g'urubni istagan vaqtindga tomosha qila olmas ekansan!... ochig'ini aytganda, u endi zerika boshlagan edi.

— Men boray, — dedi u qiroga. — Boshqa qiladigan ishim ham qolmadi.

— Yo'q, ketma! — dedi qiro. U o'ziga fuqaro topib olganidan niyoyat xursand edi va undan ayrilishni sira-sira istamas edi. — Qol, men seni ministri etib tayinlayman.

— Qanaqa ministri.

— Himm... bor ana, adliya ministri bo'laqol.

— Ammu bu yerda sud qiladigan birorta ham odam yo'q-ku?

— Kim biladi deysan, — deb e'tizoz bildirdi qiro. — Axir, men halli butun qiroligimni sinchiklab ko'zdan kechirib chiqmagandan-da. Ko'rib turibsan, ancha qarib qolganman, arava qo'yadigan joyim yo'q, yayov yurishga esa chog'im kelmaydi.

Kichkina shahzoda asta egilib sayyoraning narigi chekkasiga nazar tashladi.

— Men allaqachon sinchiklab qarab chiqdum! — deb xitob qildi u. — U yoqda ham hech zog' yo'q.

— Unday bo'lsa, o'zingni o'zing sud qila qol, — dedi qiro. — Bu dunyodagi eng og'ir ish. O'zingni tergash, sud qilib hukm chiqarish o'zgalarni sud qilishdan ko'ra ming karra qiyinroq. Agar o'zingni to'g'ri si sud qila bilsang, demak, chindan ham donishmand odam bo'lib chiqasani.

— O'zimni istagan joyda sud qila olaman, — dedi Kichkina shahzoda. — Buning uchun huzuringizda qolishga aslo hojat yo'q.

— Himm... himm... — dedi qiro chaynalib, — nazarimda, sayyoramning allaqaysi yerida bir qari kalamush yashsha kerak. Kechalar bir balolarni qitirlatib yurganini eshitaman. Mana shu kalamushni sud qilish ham bo'laverdi. Vaqtli-vaqtli bilan uni o'llingga hukm qilib turasan. Uning hayot-mamoti senga bog'liq bo'ladi. Ammo har safar keyin uni afv etish lozim. Bu qari kalamushni asrab-avaylash kerak, axir, o'zi bor-yo'g'i bittta-ya...

— Men birovlarini o'llingga hukm qilishni yoqtirmayman, — dedi Kichkina shahzoda. — Umuman mening ketar vaqtim bo'ldi.

— Yo'q, bo'lmadi, — deb e'tiroz bildirdi qiro.

Kichkina shahzoda yo'liga ravona bo'lmoqchi edi-yu, lekin keksa hukmoldori xafa qilishni istamas edi.

— Agar a'lo hazratlarini amr-farmonlarining so'zsiz bajarilishini xohlasalar, — dedi u, — u holda menga hozir oqilona farmoyish berishlari lozim. Masalan, siz menga bir lazha ham hayallamay yo'nga tushishni buyurishingiz mumkin. Sezishimcha, buning uchun niyoyatda qulay shart-sharoit mavjud...

Qiro indamadi. Kichkina shahzoda xiyla kutib turdi-da, asta xo'rsinb yo'liga tushdi.

— Seni elchi qilib tayinlayman! — deb qichqirdi qiro uning ortidan shosha-pisha. Shu topda u go'yo umrida gapini birov ikki qilmagandek mammun va xotirjam ko'rindi.

«G'alati xalq-da bu kattalar», — deb qo'yidi Kichkina shahzoda o'zicha yo'lida davom etarkan.

XXI

<>

Tulki paydo bo'ldi.

— Salom, — dedi u.

— Salom, — deya alik oldi Kichkina shahzoda xushfe'llik bilan, biroq tevarask-atrofiga alanglab hech kimni ko'rmadi.

— Men bu yerdaman, — degan ovoz eshitildi yana. — Daraxtning tagidaman...

- Sen kimsari? - deb so'radi Kichkina shahzoda. - Bunchayam chiroylisan!
- Men - Tulkiman, - dedi Tulki.
 - Men bilanam o'yinagin, - deb o'tindi Kichkina shahzoda, - bilsang, hozir shu qadar xafarniki..
 - Sen bilan o'ynolmayman, - dedi Tulki, - men qo'lga o'rgatilmaganman.
 - E, kechirasan bo'limasa, - dedi Kichkina shahzoda, amma bir oz o'yinib: - «Qo'lga o'rgatilmagan» degani nima? - deb so'radi.
 - Bu yerlih emas ekansan-da, - dedi Tulki, - nima izlab yuribsan bu joylarda?
 - Odamlarni izlayapman, - dedi Kichkina shahzoda. - «Qo'lga o'rgatish» degani nima?
 - Odamlarni izlayapman degin? Ularning yonida quroli bo'ladi, shuni taqib ovga chiqishadi. Juda chatoq-da shunisi. Ular tovuq ham boqishadi. Yagona ma'qil ishi shu ularning. Sen tovuq izlamayapsanmi?
 - Yo'q, - dedi Kichkina shahzoda, - Men do'st izlab yuribman. Xo'sh, «qo'lga o'rgatish» degani nima?
 - Bu allaqachonlar unut bo'lib ketgan tushuncha, - deb tushuntirdi Tulki. - Bu degani - rishtalar bog'lamoq demakdir.
 - Rishta bog'lamoq?
 - Xuddi shunday, - dedi Tulki. - Hozir sen men uchun dunyodagi o'zingga o'xshagan yuz ming bolaning birisan, xolos. Hozirsha sen menga kerak emassan, men ham senga kerak emasman. Men ham senga hozir dunyodagi yuz minglab tulkinining biriman, xolos. Amma bordi-yu meni qo'lga o'rgatsang, ikkimiž bir-birimizga kerak bo'lib qolamiz. Sen men uchun dunyodagi yagona odamga aylanasan. Men ham sen uchun dunyoda yagonaga aylanaman...
 - Tushungandek bo'layapman, - dedi Kichkina shahzoda. - Bir gil bor edli.. chamasi, u meni qo'lga o'rgatgan ekan...
 - Bo'lishi mumkin, - deb tasdiqladi Tulki. - Yer yuzida nimalar bo'lmaydi deysan. <,>
- Ertasiga Kichkina shahzoda yana shu joyga keldi.

- Yaxshisi, har kuni bir paytda kela qolgin, - deb iltimos qildi Tulki. - Masalan, agar soat to'rtda keladigan bo'lsang, men soat uchdan o'zimni baxtiyor his qila boshlayman. Muddat yaqinlashgan sari bu quvонch orta boradi. Soat to'rtda esa yuragim hayajonga to'lib shodumonlik bilan tepa boshlaydi. Ana shundagina men baxt-saodatning qadrini sezaman! Bordi-yu sen har kuni har xil vaqtida keladigan bo'lsang, meni bu baxtiyorlik tuyg'usidan mahrum qilasan... Rasm-rusumi to'g'ri bajo keltirish kerak.
- Rasm-rusum nima? - deb so'radi Kichkina shahzoda.
 - Buyam allaqachon unutilgan narsa, - deya tushuntirdi Tulki. - U shunday bir narsaki, u tufayli qaysidir bir kun boshqa kunlarga mutlaqo o'xshamaydi, u tufayli qaysidir davr boshqa davrlarga mutlaqo o'xshamaydi. Masalan, mening paytimda yuradigan ovchilarida shunday rasm-rusum bor: ular payshanba kunlari qishloqi oyimqizlar bilan ko'ngilxushlik qilishadi. Shuning uchun ham payshanba degani juda ajoyib kun-da! Shu kunlari men asta sayr qilgani chiqaman, hatto uzurnozning chekkasigacha bemalol boraman. Agar ovchilar ma'lum kunlar emas, xohlagan paytlarida ko'ngilxushlik qilaversalar, hamma kunlar bir xil bo'lib qolardi, unda men hordiq nimaligini bilmay o'tib ketardim.
 - Shu taripa Kichkina shahzoda Tulkini qo'lga o'rgatadi. Mana, niyohataytayliq chog'i ham yetdi.
 - Endi seni eslab yig'lab yuraman, - deya xo'rsindi Tulki.
 - Ayb o'zingda, - dedi Kichkina shahzoda. - Seni ranjitishni sira-sira istamasdim, axir, o'zing aytgan eding-ku meni qo'lga o'rgat deb.
 - Ha, albatta, - dedi Tulki.
 - Lekin yig'layman deyapsan-ku!
 - Albatta yig'layman-da.
 - Demak, seni qo'lga o'rgatib noto'g'ri qilibman-da.
 - Yo'q, - deb bosh chayqadi Tulki, - bundan xafa emasman. Esingdamli, oltin boshoq haqidagi senga aytgan gaplarim? - u jumib qoldi, oradan sal o'tgach, tag'in qo'shib qo'ydi: - o'sha gulzorga yana bir marta borib qaragan, feruza gulingning olamda chindan ham yagona ekaniga ishonch hosil qilasan. Qaytib kelganindan

so'ng xayrlashar chog'i seni yana bir sirdan ogoh etaman. Mayli, bu senga mendan hadya bo'lsin.

Kichkina shahzoda chamanzorga qarab ketdi.

— Sizlar mening feruza gulimga sirayam o'xsharnaysizlar, — dedi ularga. — Sizlar hali hech niyma emassizlar, chunki sizlarni biror kimsha qo'lga o'rgatgan emas, sizlar ham biror kimsani qo'lga o'rgatgan emassizlar. Mening Tulkim ham avval shunday edi, yuz minglab bosqha tulkilardan aslo farqi yo'q edi. Ammo men u bilan do'st tutindin, endi u men uchun yorug' olamdag'i yagona tulkiga aylandi.

Gullar xijolatdan qip-qizarib ketishdi.

— Sizlar chiroyilisizlar, ammo dilingiz bo'm-bo'sh, — deya davom etdi Kichkina shahzoda. — Sizlarni deb odamning qurban bo'lgisi kelmaydi. Albatta, feruza gulimga tasodifan ko'zi tushib qolgan o'tkinchi uni so'zsi: sizlarga o'xshaydi deb aytishi mumkin. Ammo uning yolg'iz o'xi menga sizlarning barchangizdan ko'ra qadirliroq. Chunki men har kuni sizlarni emas, uni sug'organman-da. Parda tortib, shisha qalpoq tutib sizlarni emas, uni izg'irin-u sovuqlardan asrab-avaylaganman. Uni deb, kapalaklar tezroq ochilib chiqib u bilan o'yinasin deb g'umbaklar olib kelganman. Men uning arz-u dodini ham, noz-u firog'ini ham eshitganman, hatto suukutga cho'mgan chog'lарimda ham ko'nglini sezib turganman. U — menki, u mening yolg'izim, yagonam...

Shundan so'ng Kichkina shahzoda Tulkining yoniga qaytib keldi:

— Xayr, yaxshi qol... — dedi u.

— Xayr, yaxshi bor, — dedi Tulki.

— Mana senga aytmoqchi bo'igan sirlari gapim: faqat ko'ngil ko'zigina ochiq, eng asosiy narsani ko'z bilan ko'ra olmaysan.

— Eng asosiy narsani ko'z bilan ko'ra olmaysan, — deb takrorla di Kichkina shahzoda bu hikmatni eslab qolish uchun.

— Gulimga shuning uchun ham qadrlik, unga ko'nglingni bergansan.

— Chunki unga ko'nglimni bergenman... — deb takrorla di Kichkina shahzoda yaxshiroq eslab qolish uchun

— Odamlar bir haqiqatni unutdilar, — dedi Tulki, — ammo sen

aso yodingdan chiqarma: kimniki qo'lga o'rgatgan bo'lsang, uning taqdirliga hamisha javobgarsan. Unutma, feruza guling uchun ham javobgarsan.

— Feruza gulim uchun javobgarman... — deb takrorla di Kichkina shahzoda yaxshiroq eslab qolish uchun

(X.Sultonov tarjimasi)

Uslubiy ko'rsatmalar

«Kichkina shahzoda» ertak-qissasi XX asr adabiyotining go'zal va lirk asarlardan hisoblanadi. Ushbu jihat asar tahillidi ma'lum qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Chunki bu asarni kompozitsiya va sujet unsurlarini aniqlash asosida tahlli qilish go'yoli asarga singdirib yuborilgan nozih lirizmni buzib yuborishi mumkin. Shu bois har bir so'z va ibora o'z o'mi va ma nosiga ega bo'lgan ushbu asar tahilliga ehtiyojkorlik bilan yondashish fransuz yozuvchisi badiuy oiami haqida kengroq tasavvurga ega bo'lishiga yordam beradi.

Ushbu asarni o'rganish o'rta maktab dasturiga ham kiritilgan. Lekin chuqur falsafly mazmunga ega bo'lgan asarni tahsil qilishda maktab o'quvchisi birmuncha qiyinchiliklarga duch kelishi tabiy. Shuning uchun ham «Kichkina shahzoda»ni oly maktabda yana bir bor tahilliga tortish lozim deb hisobladik.

Sent-Ekzyuperi ijodidagi muhim asarlardan biri bo'lgan «Kichkina shahzoda» falsafsi ertagi 1942-yilda, yozuvchisi Nyu-Yorkda yashagan paytda yozildi. U dunyoning yuzlab tillariga tarjima qilingan va fransuz yozuvchisining eng mashhur ijod namunasini sifatida tan ollingan. Adabiyotshunos R.Grahyovning ta'kidlashicha, «Kichkina shahzoda» inson o'zini poetik jihatdan his qilishining ishonchli tajassumi bo'lib qoldi. U yozuvchining boshqa asarlariga nur taratib turadi va ularni ushbu ertaksiz anglat yetish mumkin emas.¹¹ Shuning uchun amaliy mashg'uilotda ushbu asar haqida, uning poetikasi borasida kengroq to'xtash Sent-Ekzyuperi badiyi

¹¹ Сент-Экзюпери А. де. Ночной полёт. Планета людей. — М.: Кудок, лит., 1979. — С.334.

olamining o'ziga xosliklari haqida har tomonlama xulosa chiqarishga imkoniyat yaratadi deb hisoblaymiz.

Asar motivlari, aniqrog'i, bolakay timsolining paydo bo'lishi 1927 - 1929-yillarda borib taqaladi. Bu davrda Kap-Jubi (Marokash) aerodromining bo'shig'i bo'lgan Sent-Ekzyuperi samolyoti Sahroyi Kabirda avariya uchraganligi va shu kuni sahroda tunashga majbur bo'lgan uchuvechi tushiga qandaydir mitti odam kirgani haqida ma'lumotlar bor. Mualif ancha vaqtgacha ana shu tush taassuroti bilan yurganligini uning tomonidan turli yillarda chizilgan qanoit bolakay suratlari tasdiqlaydi.

Nitqorida Sent-Ekzyuperi badiiy-estetik tafakkurining shaklanishida F.Nitshe falsafiy qarashlari ham o'z ta'sirini o'tkazganligi haqida fikr yuritilgan edi. «Kichkina shahzoda» tahlili jarayonida Nitshening inson ruhiy kamoloti haqidagi qarashlarini yodga olish fransuz adibi asarini yanada teran his etishga yordam berishi mumkin.

Nitshening fikricha, inson ruhiy kamoloti tuyu, sher va bolalik deb ataluvchi uch davrni bosib o'tadi. «...Ruh dastlab tuyu edi, keyin sherga aylanadi, sher bolaga aylanadi... Chidamkor ruh eng og'ir qiyinchiliklarni o'ziga oladi; o'rgangan tuyu misoli o'z sahrosiga shoshiladi. Lekin ana shu sahroda ikkinchi evrilish sodir bo'ladi. Bu yerda ruh sherga aylanadi, erkin ruhga aylanadi. Erkin ruh o'z sahrosida hukmrondir. Lekin yangi qadriyatlarini sher ruhiyati yarata olmaydi.. Go'daklik poklikning o'zidir».¹² Nitshening qarashicha, uchinchi - go'daklik davrida sherga xos yolg'izlik ruhi o'rnnini ilohiy shondonli ruhi egallaydi. Inson o'z ichki olamida xudo ehromini ochadi va komil insonga aylanadi. Unda samoviy xislatlar bilan zarniniy xislatlar birlashadi. Nitshe o'zining «Dajjal» asarida inson ruhiyatining go'daklik davriga yanada kengroq o'rinn beradi. U bolalikni buddizm falsafasidagi narvana holatiga qiyoslaydi. Chunki go'dak ongi fikrlar og'imi bilan to'lmagan. Bola dunyonи qanday bo'lsa, shundayligicha, pokiza his etadi va qabul qiladi. Inson dunyonи fikr va his-tuyug'ulari orqali in'likos etadi. Bunday hissiyot dunyonи buzib ko'rsatadi. Go'dak qalbida

¹² Ницше Ф. Так говорил Заратустра. Соч. в 2 т. Т.2. - М.: Мислъ, 1990. - С.197.

xursandchilik hukmron bo'lganligi uchun dunyo go'zalligini sezaladi. Hatto eng xaroba joydan ham bu qalb o'z diqqatini jalb qiluvchi go'zallikni topishga qodirdir. Inson ulg'aygan sari uning ongi fikrlar bilan to'lib-toshib, ruh harakatiga to'siq qo'yib boradi. Natijada bolalik dunyosidan uzoqlashgan sari ruhiy hislar o'tmaslashib, inson fikrlorchi robotga aylanib boradi.

Hayoti davomida vaqt-i vaqt bilan bolalikka qaytib yashashni targ'ib qilib kelgan Sent-Ekzyuperi «Kichkina shahzoda»ni do'sti Leon Vertning bolalik damlariiga bag'ishlagani, asarning bosh qahramoni qilib bolani tanlagani ham bejiz bo'masa kerak. Shu o'rinda «Kichkina shahzoda»ni jahon adabiyotidagi mavzu va g'oyaviy jihatdan yaqin bo'lgan ma'lum bir asar bilan qiyosiy tahlili qilish lozim deb hisoblaymiz. Bunday tahlil Sent-Ekzyuperi asarining badiiy-estetik qimmati haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishga imkon yaratishi mumkin. Inson hayotining beg'ubor damlarini tasvirlash adaibiyyat uchun azaly mavzularidan sanaladi. Bolalik ruhiy olami yuksak mahorat bilan tasvirlangan badiiy asarlar ham talaygina (Ch.Aymatovning «Oq kema» qissasi ham ana shunday asarlardan sanaladi).

«Kichkina shahzoda» ertagi yaratilgan davrda Sent-Ekzyuperi vatani Fransiyada, yozuvchi iborasi bilan aytganda, «sovut va ochlik hukm surardi». Mualif o'z vatanining fojiali taqdiri haqida o'quvchini ogoh etgandek bo'ladi. Ertak yozuvchining Fransiyada yashayotgan do'sti Leon Vertga bag'ishlov so'zlarini bilan boshlanadi: «Bu kitobchani katta yoshdag'i odamga bag'ishlaganim uchun bolalardan kechirim so'rayman. O'zimni oqlash uchun shuni aytishim mumkinki, bu katta yoshdag'i odam mening eng yaxshi bo'ldi. Buning ustiga u dunyodagi hamma narsani, hatto bolalarga atab chiqarilgan kitobchalarini ham tushunadi. Kitobchamni bir paytda mana shu katta yoshdag'i do'stimning o'rniida bo'lgan kichkina bolakayga bag'ishlayman. Axir, kattalarning hammasi ham avval-boshsha yosh bo'lganlar, faqat buni ularning ozg'inasini biladi, xolos».¹³

Talabalarga ushu bag'ishlov asarni tushunish va anglashda muhim o'rinni tutishi haqida tushuncha berish lozim bo'ladi. Ushbu

¹³ Сент-Экзюпери. Кичкина шахзода. - Ташкент: Ён гвардия, 1988. - Б.68.

bag'ishlovni asarda ko'tarilayotgan muammolar dunyoda o'sha davrda bo'layotgan voqealar bilan uzviy bog'liq ekanligiga ishora deb anglash mumkin. Ertak bir paytlar Leon Vert o'rniда bo'lgan kichkina bolakayga bag'ishlanayotganiga bag'ishlova alohida urg'u berilmoga. O'z navbatida, bag'ishlov filni butunligicha yutib yuborgan bo'g'ma ilon, Kichkina shahzoda sayyorasini kashf etgan turk astronomi va asosiy voqealarga hech qanday aloqasi yo'qday bo'lib tuyuluvchi asar ekspozisiysi bilan ham uzviy bog'liqdır.

Ertakning yaratilish tarixi haqida tadqiqotchilar tomonidan turli fikrlar va taxminlar bildirilgan. Lekin fransuz yozuvchisi ijodi tadqiqotchilarning ko'pchiliq asar yaratish g'oyasi paydo bo'lishini 1927 – 1929-yillar bilan bog'laydilar. Bu davrda Sent-Ekzyuperi Kap-Jyubi (Marokash) aerodromidan deyarli har kuni samolyotda havogva ko'tarilib, Sahroyi Kabirning ichkarilariga uchar edi. Bu zarur mashq'ulot bo'lib, o'ta yuqori namlikdan samolyot motorlari zanglay boshlashimding oldini olardi.

Shunday uchishshardan birida motor «ish ko'rsatadi» va uchuveni samolyotni bir amallab qo'ndiradi. Sahroga oqshom cho'ka boshlaysidi. Ekzyuperi atrofni ko'zdian kechirib chiqadi. Samolyot tepalkining xuddi marmar stolday tekis joyiga qo'ngan ekan. Uning diqqatini ana shu ajoyib tekislikdag'i katta qora tosh o'ziga tortadi. Bu tosh unga boshqa sayyoradan kelib qolgan «kelgindi» bo'lib tuyuladi.

Qorong'ulik cho'kadi va uchuveni samolyot kabinasida yulduzlarni kuzatib yotib uyquga ketadi. Uning tushiga qandaydir mitti odamlar kiradi. Ulardan biri uchuveni bilan juda muloyim ohangda suhabatlashadi. Ertalab uyg'ongan Sent-Ekzyuperi ancha vaqtgacha ana shu tush taassuroti bilan yuradi. Motordagi nosozlik bartaraf etilib, Kap-Jybuba qaytiladi. Ertakning dastlabki chizigilarini ana shu voqeя ta'siri ostida paydo bo'lgan deyish mumkin. Lekin ana shu chizigilarning mukammal bir asar tusini olishida asosiy turkti yoki sabab bo'lgan voqeя Ikkinchini jahon urushi va uning yozuvchi ruhiy olamiga leo'rsatgan ta'siri hisoblanadi.

Demak, Sent-Ekzyuperiga ko'pdan beri timchilik bermay kelgan motiv «Kichkina shahzoda» uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Sent-Ekzyuperi o'z qahramoniga 5-6 yoshdag'i bola ruhiyatiga

xos xususiyatlarni ato etgan. Asar davomida bolalik dunyosi kattalar dunyosiga qarama-qarshi qo'yildi. Kattalarning hayotni bezab turuvchi romantika va go'zallikni his qilish kabi hislardan yiroq ekanligi bolani hayratga soladi. Shuning uchun ham kattalar shahzoda chizgan filni tirkilay yutib yuborgan bo'g'ma ilon rasmini «shlapa» deb ataydilar. Bola esa o'sha kattalar ko'ra olmaydigan utchiga ichidagi qo'zichoqni ko'ru oladi. Urmuman, shahzoda hali kattalar qadami yetmagan soflik sayyorasining sohibidir. Bosh qahramon ismsiz – uning Kichkina shahzoda deb atalishi ham shundan.

Shahzoda qiziquvchan va ishonuvchan bo'lib, barcha jonli mayjudot uni hayratga soladi. A de Sent-Ekzyuperi hayrat hissini insonga ato etilgan ajoyib ne'matlardan biki deb biladi. Faqat qalbi pok, beg'ubor kishigina hayot go'zalliklaridan chinakamiga hayratga tushishi mumkin. Kichkina shahzoda ham o'z sayyorasida va boshqa sayyoralarda hayrat hissi bilan yashaydi.

Inson ulg'aygan sari hayot hodisalaridan, go'zalliklaridan hayratlanish yo'qolib boradi. Hayrat hissining yo'qolishi esa insomni dag'allashiha olib keladi, uni fikriovchi mexanizmga aylanrib qo'yadi.

«Kichkina shahzoda»da kattalarning hayotni bezab turuvchi romantika va go'zallikni his qilish kabi hislardan yiroq ekanligi bolani hayratga soladi. Mualif bolalarga xos kuzatuvchanlik bilan kattalarga baho beradi: «Kattalar raqamlarni juda yaxshi ko'rishadi. Agar ularga yangi do'st ortirganingiz xususida aytib qolsangiz, ular hech qachon asosiy narsa haqida so'ramaydilar. Ular: «Uning ovozi qanaqa? Nechta og'a-inisi bor? Og'irligi qancha ekan? Otasi qancha moyana oladi?» – deb so'ray ketadilar. So'ng shu tariqa o'zlaricha odamlarni yaxshi bilib olgan bo'ladilar».¹⁴

Shu o'rinda bosh qahramonning boshqa sayyoralarining a'zolari bilan munosabatini ko'rsatish uchun mualif qo'llagan badiy usuliga e'tibor qaratish lozim. Shahzoda o'ziga yoqqan sayyora sohiblari bilan xayrashadi (qirol, Charog'bon), boshqalarni esa lol-u hayron holda tark etadi. Beshinchi sayyoradagi Charog'bondan tashqari

¹⁴ Сент Экзюпери. Кичкина шахзода. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986. – Б.77.

barcha kimsalar shug'ullanayotgan mashg'ulotlar Shahzoda uchun hayratlanarli va ma'nisiz bo'lib tuyuladi.

Taniqli ruhshunos D.Elikoninson ta'kidlashicha, «yaxshi» va «yomon» tushunchalari bolalarda 4-5 yoshdan boshlab shakilana boshlaydi. Ular maznnunidan kelib chiqqan holda bu tushunchalarni asosiy axloq kategoriyasi deb biladi va hayotdagi barcha hodisalarni shu asosda baholaydilar.¹⁴

A.Sent-Ekzyuperi ham asarini bola va dunyo tartib-qoidalarini o'tasidiagi ziddiyatlar asosiga qurgan.

«Kichkina shahzoda»da zamonanining shafqatsizliklari va dag'alliklariga Shahzoda xarakteridagi soddadillik, samimiylik hamda romantizm qarshi qo'yildi. Insonlarning juda ko'p «behuda» va «ma'nisiz» xatti-harakatlari bolani taajjubga solishi tufayli u bundan bolalarga xos soddalik bilan xulosa chiqaradi. Xususan, bekat nazoratchisi bilan bo'lgan subbatdan so'ng Shahzoda shunday xulosaga keladi: «Odamlar jon-jahdi bilan tezyurur poyezdlarga oshiqib, nima izlaganini o'zlar ham bilmaydi. Shuning uchun ham orom neligini bilmay goh bir tomonga, goh ikkinchini tomonga xir yuguradilar... Lekin bari behuda...»¹⁵ Shu o'rinda inson o'y-fikrlarining barchasi nishbiy ekanligi haqidagi muallif shubhalariga e'tiborni qaratmoq lozim. Filmi tiriklay yutib yuborgan bo'g'ma ilon bilan oddiy shlapani farqlay olmagan insong'a ishonib bo'ladimi? Agar Kichkina shahzoda sayyorasini ochgan turk astronomi o'z kashfiyoti haqida yevropacha klyinib xabar berishdan bosh tortgandamni, kashfiyot tan olinmas edi. Unda biz sayyora haqida biron-bir ma'lumotga ega bo'la olarmidik?

Shu o'rinda kattalar B-612 deb nomlagan (chunki ular raqamlarni juda yaxshi ko'rishadi) shahzoda sayyorasi xususida to'xtalish lozim. Uning ona sayyorasi bor-yo'g'i bir uydek bo'lib, bola unda g'amgin ya yakrang hayot kechiradi. Uzoq yillardan mobaynidagi yagona dilxush ermagi quyosh botar payt g'urubni tomosha qili-

¹⁴ Эльконин Д.Б. Избранные психологические труды. — М.: Педагогика, 1989. — С.163.

¹⁵ Сент-Экзюпери. Кичкина шахзода. — Ташкент: Ёш гвардия, 1986. — Б.89.

ishdan iborat bo'lgan. Bir safar bir kunda quyosh botishini hatto qirq uch marta tomosha qilgan:

«Bilasanml... ba'zan yuraging nimadandir g'ussaga to'lib ketganda botayotgan quyoshga birpas termilib o'tirsang bormi...»

— Dermak, g'urubni qirq uch marta tomosha qilgan kuning judayam xafa bo'lgan ekansan-da?

Amro Kichkina shahzoda bunga javoban indamadi».¹⁶

Sayyorada boladan tashqari kichik so'nmagan vulqon va nozik atirgul ham bor. Yana u yerda baobab degan o'simlik ham o'sadi. Agar uni boshqa o'simliklar orasidan vaqtida payqab yulib tasblanmasa, u daraxtga aylanish, kuchli torimlari bilan kichik sayyorani tilka-pora qilib tashlashi mumkin. Fransuz yozuvchisi ana shu ramziy obraz orgali insoniyatga xavf solayotgan fashizmni vi inson ma'naviy barkamolligining asosiy kushandas hisoblangan loqaydilikni tasvirlamoqchi bo'ladi. Sayyora baobab urug'i bilan zararlangan, uni o'z vaqtida yulib tashlash kerak.

Shahzoda zerikarli, lekin juda muhim mashg'ulot — o'z sayyorasini tartibga solishni kanda qilmaydi. «Bizza shunday qoida bor: ertalab uyqudan turib, yuz-ko'lingin yuvgach, u yoq-bu yoqni yig'ishtirgandan so'ng darhol sayyorangni tozalashga kirishmog'ing lozim».¹⁷

Sent-Ekzyuperi kitobxonni kundalik hayotiy vogelikkha boshqacha nigob bilan qarashga majbur etadi go'yo. «Faqat ko'ngil ko'zigginsa ochiq, eng asosiy narsani ko'z bilan ko'ra olmaysan», «Kimniqol q'liga o'rgatgan bo'lsang, uning taqdiriga hamisha javobgarsan».

Sent-Ekzyuperi maktublaridan namunalar

Buenos-Ayres,
1930, yanvar

Onajon!

«Gard-ni¹⁸ o'qimoqdamani va undagi voqealarni «Sadoqatli Nifmas»¹⁹ ni sevib o'qiganimiz singari o'qisak kerak deb o'yladim.

¹⁷ Ko'rsatilgan asar. — Б.83.

¹⁸ Ko'rsatilgan asar. — Б.82.

¹⁹ Pozamond Jermann romanı.

²⁰ Margaret Kennedy romanı.

Chunki bu asarda o'z aksimizni ko'rishimiz mumkin. Biz ham o'zgacha qabile edik. Bolalik xotiralar - o'zimiz o'ylab topgan o'yinlar - menga barcha narsadan ham hayotiyoq bo'lib tuyulaveradi.

Bugun oqshom negadir Sen-Morisning²¹ salqin vestibulini esladim. Bizlar kechki ovqatdan so'ng sandiq yoki charm kreslolarga joylashib olib qachon uqlash uchun jo'natishilarini kutardik. Kattalar koridordan u yoqdan bu yoqqa o'tishardi. Nimqorong'ulikdan eshitilgan uzuq-yuluq so'zlar biu uchun juda sirla bo'lib tuyulardi. Keyin mehmonxonada brid²² va bu o'yin sirfari bizni rom etardi. Biz uqlash uchun xonamizga yo'l olardik.

Le-Manda²³, o'z karavotimizda yotgan paytlarimizda, siz ba'zan pastda qo'shiq kuylar edingiz. Qo'shig'ingiz bizga qandaydir katta bayramning aks sadosi bo'lib eshitilardi. Bilmadim, menga shunday tuyulardi.

Sen-Morisning yuqori xonasidagi kamin men bilgan buyum-larning ichida eng bezoziri va haqiqiy do'st edi. Uningchalik hech kim va hech narsa menda hayotning mustahkamligiga ishonch uyg'ota olmagan.

Tunda uyg'onar ekanman, kamindagi olov pirlidoq singari g'uvillar, undan devorga shu'la o'rmalar edi. Nimagaligini bilmayman-u, lekin kamin menga sodiq pudelni eslatardi. U bizni turli falokatlardan asrar edi. Siz tunda xonamiz eshigini qiya oolib, biz muloyim iliqlik og'ushida yotganimizga ishonch hosil qilgach, kamining jazavada guvillashta bir oz qulqoq tutar va yana yotog'ingizga ketar edingiz.

²¹ Yozuvchi bolalik yillari o'tgan joy.

²² Karta o'yinining bir turi.

²³ Sent-Ekzypneri ijodiga bo'lgan ishtiyoq uning shaxsiga bo'lgan qiziqishining ham ortishiga sabab bo'ladi. Hatijada yozuvchi vafotidan so'ng uning maktublari nashr etildi. Shunda ushbu xatlar uning asarları bilan o'ziga xos birlikni tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Ular Sent-Ekzypneri asarlarini yangicha rang va jilvalar bilan to'diradi. Ma'lum bo'lishicha, maktublar yozuvchi uchun uslub, fikrlash va muloqot maktabi bo'lib xizmat qilgan.

Hayotimda unday do'stni boshqa uchratmadim. Menga cheksizlikni Sonon yo'lli ham, aviatsiya, dengizda ham emas, balki yotog'ingizdagagi ikkinchi karovatda his etganimni o'rgatgan. Biz, bolalar uchun kasal bo'lib qolish cheksiz quvonch edi. Bu haqda har birimiz orzu qilar edi. Gripp ana shu cheksiz okeanga sho'ng'ishga katta yo'l ochar edi.

Sizga bo'lgan cheksiz minnatdorchiligimni, o'z xonadoningiz menda tugamas xotiralar xazinasini barpo etganini tasavvur ham qila olmaysiz.

Sizni quchib Antuan.

General X ga yozilgan, lekin jo'natilmagan maktubdan

*Udjda,
iyun, 1943*

-Uch yuz yillar muqaddam «Malika Klevskaya»²⁴ yaratilgan va insonlar shunday seva olganlarki, hattu muhabbatni deb bir umr monastirga ravona bo'lishgan. Bizning davrimizda ba'zi biroylar o'z joniga suiqas qilmoqdalar. Lekin ularning iztiroblarini qattiq tish og'rig'i bilan qiyoslash mumkin, xolos. Zero, bu iztirobning muhabbatiga hech qanday aloqasi yo'q...

Urushda meni o'ldirishadimi-yo'qmi - men uchun farqi yo'q. Biroq men sevganlardan nimalar omon qoladi? Men faqat insonlarningina nazarda tutmayapman, balki an'analar, takrorlanmas ranglar va qandaydir ilohiy ma'naviy shu'lani nazarda tutmoqdamman. Men uchun eng muhlimi - ularning joylashish tartibi. Sivilizatsiya bu buyumlar o'rtasidagi ko'z ilg'amas aloqalardir. Chunki bu aloqalar buyumlarnigina qamrab otmaydi, balki ularning orasidagi ko'z ilg'amas munosabatlarga ham taalluqli bo'лади.

Ommaviy ishlab chiqarish natijasida son-sanoqsiz ajoyib misiga asboblariga ega bo'lishimiz mumkin. Lekin ularda kuy ijro etuvchi sozandalarni qayerdan olamiz?

²⁴ Fransuz adibusi Lafayet xonimning 1678-yilda yozilgan psixologik romanı.

...Men agar ushbu la'nati, lekin zarur mashg'ulotdan sog'-omon qaytar ekanman, oldimda faqat bir muammo ko'ndalang bo'lishi mumkin: insonlarga qarata qanday so'z aytmog'im lozim?*

Borgo,
iyul, 1944

Onajon!

Mening ushbu maktubim sizga yetib borishini, siz esa xavotirga tushmasligingizni juda-juda istardim. Mening sog'lig'im va ishlarni joyida.

Sizni ko'pdan beri ko'rmanganim uchun ko'p qayg'udaman. Yana sizni o'ylab juda xavotirga tushmoqdaman. Qanday baxtsiz zamonda yashamoqdarniz-a?

Didining^{**} o'z uyidan ajralganini eshitib, dilim vayron bo'ldi. Eh, qani endi umga yordam bera olsam. Lekin kelajakeda u mening yordamimga bemanol umid qilsa bo'ladi.

Qachon o'z yaqinlaringga yaxshи ko'rishingni aytishga imkon bo'larkin?

Onajon, sizni quchib qolaman, meni chin ko'ngildan duo qiling.

Antuan

(Tarjimon: A.Qosimov)

Amaliy mashg'ulot rejası (1-variant)

1. «Kichkina shahzoda» asarining A. de Sent-Ekzyuperi ijodagi o'rni. Asarning janr xususiyatlari va muallifning ushbu janrga murojaat etish sabablari.

2. Bag'ishloving g'oyaviy-kompozitsions vazifasi.

3. Ertakdag'i asosiy mavzu va muammolar:

a) asardagi asosiy ziddiyat (konflikt) va uning falsafiy-estetik talqini;

b) boqiylik va foniylilik muammosi;

c) inson mas'ullig'i mavzusi.

* Ushbu maktub uchuvchi va yozuvchi, aviatsya haqidagi bir qancha kitoblar musilif Sent-Ekzyuperining yaqin do'sti Rene Shombga yozilgan bo'lib, adib va fotidan so'ng nashr etilgan. Ushbu maktub yozuvchining onasi Mariya de Fonskolimbga o'g'li o'lumidan rosa bi yillard so'ng – 1945-yilning iyul oyida yetib bordi.

^{**} Sent-Ekzyuperining singlisi – Gabriel.

Amaliy mashg'ulot rejası (2-variant)

1. Asarning obrazlar tizimi:

- a) Kichkina shahzoda obrazi;
- b) asteroidlarda yashovchilar obrazlarining o'rni va ahamiyati;
- c) shahzoda va tulki. Tulki timsolinling g'oyaviy vazifasi.

2. Ilon obrazining o'rni va vazifasi:

- a) asar kompozitsiyasidagi o'ziga xosliklar;
- b) ertakdag'i ramziylik va majoziylik;
- c) suratiarning asardagi o'rni va vazifasi;
- d) ertakdag'i insonparvarlik g'oyalarining hozirgi davr uchun ahamiyati.

Matnlar

Сент-Экзюпери Кічкіна шаҳзода. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986.

Сент-Экзюпери А.дe. Kichina shahzoda. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003.

Сент-Экзюпери А.дe. Сочинения. – М.: Худож. лит., 1964.

Adabiy-tanqidiy adabiyotlar

Андреев Л.Г. и др. История французской литературы. – М.: МГУ, 1987.

Андреев Л. Уважение к человеку! Вот пребный камень // А. де Сент-Экзюпери. Военные записки. 1939 – 1941. – М.: Прогресс, 1986.

Григорьев В.П. Антуан Сент-Экзюпери. Биография писателя // Л.: Просвещение, 1973.

Косимов А., Хўжайев С. XX аср чет эл адабиёти. – Фарона, 2003.

Referat va ma'ruzalar uchun mavzular

1. Sent-Ekzyuperi ijodida patsifizm g'oyalari.

2. Sent-Ekzyuperi asarlarida insonparvarlik g'oyalarining o'ziga xos tasviri.

3. «Kichkina shahzoda» asarida ramziy va majoziy obrazlar tizimi.

4. Sent-Ekzyuperi ijodida bolalik dunyosi soflik ramzi sifatida.

MUNDARIJA

Kirish	3	Kaligula	97
1-mavzu: J.Joys. «Evelin» hikoyasida Jeyms Joys badiiy olamining aks etishi: «Evelin» – «Uliss»ni anglashdag'i mayoq	5	Sizif haqida asotir. Absurd devorlar	104
Evelin	7	O'z joniga falsafiy qasd qilish	105
2-mavzu: F.Kafka. F.Kafka hikoyatlarining o'ziga xos badiiy xususiyatlari	19	Isyonkor odam. Isyon va san'at	106
Frans Kafka hikoyatlari	21		
Hikoyatlari	26		
Daraxtlar	26		
Chetlab o'tayotganlar	26		
Ko'priki	27		
Ko'yaklar	28		
Tog'ga sayr	28		
Prometey	29		
3-mavzu: H.Hesse. Intellektual romanida insoniylilik va qadriyatlari muammosi	35		
Jahon adabiyoti kutubxonasi	36		
«Cho'l bo'risi» romanı: olam va inson modeli	39		
Cho'l bo'risi haqida traktat (Faqt jinnilar uchun)	41		
4-mavzu: X.L.Borxes. Borxes novellalarining «poetik g'oyasi»	65		
Bobil kutubxonasi	67		
5-mavzu: E.Xeminguey. «Yomg'irda qolgan mushuk» hikoyasining g'oyaviy-badiiy o'ziga xosligi	77		
Bizning zamonda	79		
Yomg'irda qolgan mushuk	80		
6-mavzu: A.Kamyu. «Kalogula» falsafiy «g'oyalar dramasi»da absurd tushunchasining tadqiqi	92		
7-mavzu: A. de Sent-Ekzyuperi va uning «Kichkina shahzoda» asari	110		
Kichkina shahzoda	114		
Sent-Ekzyuperi maktublaridan namunalar	129		

Ilmiy-ommabop nashr

Abdug'opir Qosimov, Sidiq Xo'jayev

**XX ASR G'ARB ADABIYOTIDAN
AMALIY MASHG'ULOTLAR**

Muharrir: Abdulla SHAROPOV

Musahhib: Kurshid IBROHIMOV

Badiiy muharrir: Feruza NAZAROVA

Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009.

Terishga berildi: 01.04.2011. Bosishga ruxsat etildi: 21.06.2011.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 60x84 1/₁₆. Journal garniturasi.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t.: 6,45. Sharfiy b.t.: 7,91.

Adadi: 500 nusxa.

Buyurtma № 44

«AKADEMNASHR» nashriyotida nashrga tayyorlandi.
100156, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 20th-mavze, 42-uy.

Tel: (+998 97) 331-56-23 e-mail: akademnashr@mail.ru

AKADEMNASHR NMM MCHJ bosnaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 20th-mavze, 42-uy.